

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI

UMUMIY GIGIENA KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»

Toshkent tibbiyot akademiyasi
Urganch filiali o'quv ishlari bo'yicha direktor
muovini, t.f.n., dotsent _____
Z.F.Jumaniyozova
«_____» _____ 2007 yil

Bilim doirasi: 720000 - «Sog'liqni saqlash»
Bilim yo'nalishi: 5720100 - «Davolash ishi»

TIBBIYOT TARIXI FANIDAN
MA'RUZALAR TO'PLAMI
DAVOLASH VA PEDIATRIYA FAKULTETI
TALABALARI UCHUN

“TAVSIYA ETILGAN”

Umumiy gigiena kafedrası
№ 1 sonli bayonnoma
28 avgust 2007 yil
kafedra mudiri : t.f.d., professor
Do'schanov B.A. _____

Urganch – 2007

Ushbu ma'ruzalar matnlari to'plami tibbiyot tarixi fanidan xozirgi zamon talablariga mos tarzda mavjud namunaviy dasturlar asosida tuzilgan

To'plamda tibbiyot tarixi Fani bo'yicha talabalar uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar jamlangan

Ma'ruza matnlari to'plami tibbiyot institutlarining davolash, pediatriya va oliy malakali hamshira fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan

Tuzuvchilar:

Do'schanov

Baxtiyor Allaberganovich- I Tosh Dav TA Urganch filiali umumiy gigiena mudiri, t.f.d., professor

kafedrasi

Nuralieva

Xafiza Otaevna - shu kafedra dotsenti, t.f.n.

Taqrizchilar:

Bobojonov

Abdujabbor Sattorovich- I Tosh Dav TA umumiy va ijtimoiy gigiena kafedrasi mudiri, t.f.d., professor

Iskandarova

SHaxnoza To'liqinovna – ToshPMI umumiy va ijtimoiy gigiena kafedrasi mudiri, t.f.d., professor

Ma'ruzalar rejasi

№	Ma'ruzalarning mavzusi	Soat
1.	Tibbiyot tarixi fani va uning boshqa tibbiy fanlar qato-rida tutgan o`rni. Insoniyat jamiyatida tibbiyotni rivojlanishi va yangi davolash usullarini ishlab chiqilishi.	2
2.	Qadimgi G`arb mamlakatlarida tibbiyotni rivojlanishi (YUnoniston, Rim, Vizantiya va boshqa mamlakatlar).	2
3.	Qadimgi SHarq mamlakatlarida tibbiyotni rivojlanishi (O`rta Osiy, Xitoy, Hindiston, Misr, Eron va boshqa mamlakatlar tibbiyoti).	2
4.	O`zbekiston xududida O`rta asrlarda tibbiyotni rivojlani-shi (VIII-XIII asrlar).	2
5.	Abu Ali ibn Sino va uning tibbiy fikrlari, tabiblik faoliyati.	2
6.	Temur va temuriylar davridagi tibbiyot (XII asrni ikkinchi yarmi XV asr).	2
7.	O`zbek xonliklari davridagi tibbiyot.	2
8.	Kapitalizm va mustamlaka davridagi tibbiyotni rivojlanishi.	2
9.	Mustaqillik davridagi tibbiyot. O`zbekiston sog`liqni saq-lash sohasidagi yangi qonun va qarorlarning ishlab chiqilishi xamda ularni tibbiyotga tadbiq etilishi.	2
J a m i		18

MA'RUZA MATERIALLARINING MAZMUNI

Ma'ruza №1.

Tibbiyot tarixi fani va uning boshqa tibbiy fanlar katorida tutgan o`rni. Insoniyat jamiyatida tibbiyotning rivojlanishi va yangi davolash usullarini ishlab chiqilishi – 2 soat.

Mavzuning maqsadi:

- Talabalarga tibbiyot tarixi fanining o`qitishdan maqsad, tibbiyotning dastlabki paydo bo`lishidan boshlab to bizning kunimizgacha bosib o`tgan yo`lini to`g`ri tahlil qila bilishni va bu sohada aniq fikr yuritishni o`rgatish.

- Talabalarga bizning mamlakatimizda va jahon miqyosida tibbiyotning qanday kelib chikishi va rivojlanganligini xronologik ravishda tanishtirish.

Kutilayotgan natijalar:

Talabalar ma'ruza eshitgandan so'ng bilishlari kerak:

- Tibbiyot tarixi fanining maqsadi va vazifalarini.
- Tibbiyot tarixining fan sifatida shakllanishini.
- Tibbiyot tarixi fanining boshqa tibbiy bilimlar qatorida tutgan o'rnini.
- Tibbiyot tarixi fanini o'rganishdagi asosiy manbalarni.
- Insoniyat jamiyatida tibbiyotning kelib chiqishidagi nazariyalarni.
- Birinchi tibbiy muolajalarni kelib chiqishini.

Ma'ruza rejalari:

- Tibbiyot tarixi fanining tibbiy xodimlar tayyorlash tizimdagi tutgan o'rnini va ahamiyati.
- Tibbiyot tarixining fan sifatida shakllanishi.
- Tibbiyot tarixi fanining asosiy vazifalari.
- Faning o'rganishda foydalaniladigan arxeologik va yozma asarlar manbalari.
- Tibbiyotning kelib chiqishidagi nazariyalar.

O'qituvchining 1-ma'ruza bo'yicha izoxi:

Tibbiyot tarixi fani, uning kelib chiqishi va boshqa tibbiy bilimlar katorida tutgan o'rnini. Tibbiy bilimlar qatorida tibbiyot tarixi fani alohida urin egallaydi. U tibbiyotning tarixiy rivojlanish yo'llari va uning hozirgi kungacha etgan darajasi haqida umimlashtiruvchi tushuncha beradi, tibbiyotning taraqqiyot qonunlarini ochadi va shunga asosan uning kelgusidagi yo'nalish yo'llarini ko'rsatib beradi. Tibbiyot tarixi umiminsoniyat tarixining muhim qismidir.

Bo'lajak xakim (vrach) uchun tibbiyot tarixini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Tibbiyot tarixi fani tibbiyotning rivojlanish yo'llarini chukur o'rganishda, uning erishgan yutuklarini tugri aniklashda talabalarga dastur bo'lib xizmat qiladi, ularning bilim darajasi va saviyasini oshiradi. Umuman, tibbiyot tarixi fani talabalarining kasbiy-estetik, ma'naviy-g'oyaviy va madaniy jihatdan yuksak darajadagi mutaxassislar bo'lib etishishlarida katta ro'l o'ynaydi.

Tibbiyot tarixi fani. Tibbiyot tarixi tibbiyotning kelib chiqishi va rivojlanishini ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan bog'lik holda o'rganuvchi fandir. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot tibbiyotning rivojlanish darajasini belgilaydi. Masalan, ibtidoiy jamoa davrida yashagan kishilarning hayoti juda past darajada rivojlangan edi. Ular yashash uchun hech narsa ishlab chiqarmay, faqat tabiatdagi mavjud mahsulotlar (o'simliklar, ularning mevalari, ildizlari va x.k.)ni eb yashaganlar. SHuningdek, ular tibbiyot sohasida xam hech narsa kashf etmay, tabiatda mavjud bulgan shifobaxsh o'simliklarni shundayligicha eb davolanganlar. Binobarin, bu davrda tibbiyot xam juda past darajada bo'lgan. Undan keyingi ijtmioiy hayot bosqichlari tibbiyotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Tibbiyotning rivojlanishida tabiiy fanlar xam muhim rol o'ynaydi. Tabiiy fanlarning har biri tibbiyotni boyitib, rivojlantirib boradi. Masalan, kimyo, botanika fanlarining rivojlanishi dori-darmonlarning ko'payishiga hissa qo'shadi. Biologiya, parazitologiya, mikrobiologiya fanlarining rivojlanishi tufayli ko'pgina kasalliklarning sababchilari (mikroblar, parazitlar) aniqlandi. Fizika fanining rivojlanishi natijasida yangi-yangi tashxis va davolash usullari (mikrsokop usuli bilan tekshirish, rentgentrادی nurlaridan foydalanish, elektrokardiografiya va x.k.) ishlab chiqildi.

Tibbiyot tarixi umumiy va hususiy kislmlarga bo'linadi. Umumiy tibbiyot tarixi tibbiyotni bir butun to'laligicha o'rganadi, uning tarakkiyot qonuniyatlarini kashf etadi, tibbiyotning kishilik jamiyati rivojlanishining xar bir davridagi o'ziga hos hususiyatlarini aniqlaydi.

Hususiyy tibbiyot tarixi tibbiyotning ayrim sohalarining kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganadi, ayrim yirik tibbiyot olimlarining hayoti va faoliyati bilan tanishadi.

Umumiy tibbiyot tarixi mustaqil fan sifatida o'qitiladi. Hususiyy tibbiyot esa har bir tibbiy fanning kirish qismida bayon etiladi. Masalan, talabalarning anatomiya fanidan dars berishda dastlab anatomiyaning rivojlanish tarixi bayon etiladi va x.k.

Tibbiyot tarixining fan sifatida shakllanishi. Tibbiyot tarixi XIX asrda alohida fan shaklini oldi, lekin tibbiyot tarixiga oid dastlabki asarlar ancha ilgari yozila boshlagan. Masalan, «Xippokrat to'plami» nomli mashhur kitobga kiritilgan «Qadimgi tibbiyot haqida» nomli maqola tibbiyot tarixiga oid birinchi asar xisoblanishi mumkin. Bu maqolani (Gippokrat) Xippokratning o'zi yozgan, deb xisoblaydilar. Maqolada Xippokrat tibbiyot masalalarida o'tmishdagi har xil fikrlariga sharh beradi. Ammo birorta xam xakimning ismini keltirmaydi.

Tibbiyot tarixini o'rganishda ko'pgina manbalardan foydalanamiz. Bu manbalardan birinchisi – **arxeologiya** fanidir. Arxeologiya faniqadimgi zamon odamlari va ularning tarixiga oid masalalarni arxeologik qazilmalar orqali o'rganuvchi fandır. Arxeologik qazilmalar vaqtida tibbiyotning kelib chiqishi va uning dastlabki rivojlanishiga oid ashyoviy materiallar (qadimgi odamlar suyaklari, ular ishlatgan qurollar, xususan, tibbiy muolajada foydalaniladigan asboblari, har xil idishlarda saqlanib qolgan dorivor moddalarning qoldiqlari va x.k.) topiladi.

Ikkinchisi – paleopatologiyadir. Bu fan qadimgi zamon odamlarining suyaklarini tekshirib, ularning qanday kasalliklar bilan og'rikanliklarini aniqlaydi. Bunda rentgentologik va radiologik usullardan foylaniladi.

Uchinchisi – paleobiologiyadir. Bu fan qadimgi zamon odamlarining suyaklarini radiobiologik va immunologik usullar bilan tekshirib, o'sha zamon odamlarining organizmidagi biologik xususiyatlarni aniqlaydi.

Ikkinchi manba - **yozma asarlardir**. YOzma asarlar ikki guruxga bo'linadi: 1. Qo'lyozma asarlar. 2. Bosma (chop etilgan) asarlar.

Qo'lyozma asarlar juda qadim zamonlarda yaratila boshlangan. Bularga Qadimgi Misr papiruslari, Assuriya va Vavilon (Babilmanda) shohlarining toshga o'yib yozilgan qonunlari, qoyalarga yozilgan xatlar va suratlar, teriga va nihoyat qog'oz kashf etilgandan so'ng qog'ozga yozilgan xatlar kiradi. SHu xatlar orasida tibbiyotga oid qo'lyozmalar xam ko'p uchraydi.

Bosma asarlar bosma dastgoh kashf etilgandan so'ng paydo buldi. Qogoz va bosma dastgoh kashf etilishi tibbiyot bilimining tez va keng rivojlanishiga asos bo'ldi.

Insoniyat jamiyatida tibbiyotning kelib chiqishi. Insoniyat jamiyatida tibbiyotning kelib chiqishi haqida ikki xil nazariya mavjud:

1. Diniy-mistik nazariya. 2. Ilmiy-materialistik nazariya.

Diniy-mistik nazariya. Diniy-mistik nazariya tarafdorlarining fikricha, tibbiyot dastlab paydo bo'lgan. Davolash ishlari bilan birinchi bo'lib koinlar (ruhoniylar) va rohiblar (monaxlar) shug'ullanganlar. Ular insonning har xil kasalliklardan azob chekayotganligini ko'rib, ularga rahmlari kelgan va rahm-shafqat yuzasidan bemorlarni davolay boshlaganlar. Ammo bu nazariya uncha to'g'ri emas, chunki tibbiyot insoniyat tarixida din kelib chiqishidan ancha ilgari xam mavjud bo'lgan. Tibbiyotning kelib chiqishi dinga bog'liq bo'lmagan. U dindan oldin paydo bo'lgan.

Ilmiy-materialistik nazariya. Ilmiy-materialistik nazariyaga asosan tibbiyot, insoniyat jamiyati, rivojlanishining dastlabki bosqichida zarurat tufayli yashash uchun kurash jarayonida kelib chiqqan. Arxeologik va tarixiy materiallarning ko'rsatishicha, birinchi ibtidoiy (primitiv)

davo usullari bundan bir necha million yillar muqaddam yashagan odamsimon maxluqlar (antropoidlar) tomonidan ishlab chiqilgan.

Birinchi tibbiy muolajalarning ishlab chiqilishi. Dastlabki tibbiy muolaja kelib chiqishi va ularning rivojlanishida inson organizmining tuzilishi va uning biologik xususiyatlari muhim rol o'ynagan. Har bir tirik mavjudotning organizmi kasalliklarga qarshi ko'rsatuvchi biologik xususiyatga ega.

Organizmning kasallik paydo qiluvchi faktorlarni neytralizatsiya qilish xususiyatini «ichki tibbiyot», ya'ni organizmning o'z ichida ta'sir qiluvchi «tibbiyot» deb atash mumkin. Bu «ichki tibbiyot»ning roli juda kattadir. «Ichki tibbiyot» tirik mavjudotlar biogenezi jarayonining xamma davrida rivojlanib bordi.

Er yuzida birinchi bo'lib muolaja usullarini ishlab chiqqan odamsimon maxluqlar (antropoidlar) dastlab ikki buyuk kontinent – Afrika va Osiyoda paydo bo'lgan. SHunday maxluqlarning suyaklari Afrika va O'rta Osiyo hududida topilgan. Habashiston (Efiopiya – olimi Alemaye Asfyu 1976 yilda xadar soyida (SHarki-SHimoliy Habashiston) o'sha davr odamsimon maxluqning toshga aylanib qolgan suyagini topgan. 1928 yilda Xitoy erida Beyjin (Pekin) yaqinida bundan 500 ming yil muqaddam yashagan odamsimon maxluqning suyagi topilgan. Uni sinantrop, ya'ni xitoy odami deb ataganlar.

O'zbekiston hududida bunday odamsimon maxluq suyagi 1987 yilda janubiy Farg'onadagi Selung'ur g'orida topildi. Bu maxluq bundan 800-700 ming yil muqaddam yashagan ekan.

Antropolog olimlar Selung'ur g'oridan topilgan odamsimon maxluq suyagini tekshirib, antropoidlarning odam tomon birinchi qadam qo'ygan davridan (3 million yil muqaddam) shu selung'ur maxluqigacha bo'lgan rivojlanish davri juda ko'p vaqt (2 million 200 ming yil) o'z ichiga olgan bo'lsa am xali ular tamoman inson qiyofasini olmagan. Ularning xatti-harakatlari xayvonnikidan unchalik farq qilmagan, tashqi qiyofasi esa maymunlarga yaqin bo'lgan degan xulosaga keldilar.

Insonning avstralopitekdan keyingi rivojlanish bosqichi – **pitekantrop** davridir. Bu davr paleolit, ya'ni qadimgi tosh davri deb ataladi. Pitekantropalar birinchi bo'lib qurolga ishlov bera boshlaganlar. Pitekantroplardan boshlab aktiv davolash usuli amalga oshirila boshlagan. Ular shifobaxsh o'simliklarni xam qidirib ishlata boshlaganlar.

Taraqqiyotning bundan keyingi bosqichi biz yuqorida ko'rsatib o'tgan sinantropalar davridir. Ular odamlarga yana xam yaqindirlar. Sinantropalar qurol yasashda pitekantroplardan ustun to'rganlar. Ular tosh va suyakdan ancha takomillashgan o'tkir qurollar yasay olganlar.

Antropogenez jarayonining navbatdagi davri **paleoantropalar** davridir. Bular bizdan 100-60 ming yil muqaddam yashaganlar. Paleoantrop-lardan eng e'tiborga sazovar bo'lgani neandertallardir. Neandertallar yashash uchun atrof-muxitda qulay sharoit yaratish chorasini ko'ra boshlaganalar.

Antropoidlar rivojlanishidagi navbatdagi bosqich mezentropalar davri bo'lgan. Mezentrop tipidagi maxluqlarning suyagi birinchi bo'lib Franciyadagi kromanon g'oridan topilgan. SHuning uchun bu maxluqlarni kromanonlar deb ataganlar.

Eng qadimgi mezentropalar suyaklari O'rta Osiyo Nabetdogdagi Jabil ko'li va Damdam chashma g'orlaridan topilgan. Jabil ko'li kadimgi Uzboy daryosining o'zani qirg'og'ida joylashgan ekan. Uzboy daryosi oqar daryo bo'lgan, xozir esa qurib kolgan.

Antropoidlarning odam tomon rivojlanishidagi oxirgi bosqichi – **neantropalar** davridir. Bular neolit, ya'ni yangi tosh davrida yashaganlar. Neantropalar tashqi ko'rinishida insonning

xamma belgilariga ega bo'lgan. Arxeologlar neantrop davrini ishlab chiqaruvchi davr deb ataydilar.

Insonlar taraqqiyotining navbatdagi bosqichi – bronza davridir. Bronza (metall) insonlar hayotida juda muxim rol o'ynaydi. U tibbiyot rivojlanishida xam alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bronza davrida yashagan odamlarning qarorgohlaridan arxeologik tekshirishlar vaqtida bronzadan yasalgan pichoqlar, ignalar, kateterlar, suyak kesuvchi o'tkir asboblardan topilgan. Bu asboblardan yordamida o'sha davr «tabib»lari angchagina murakkab operatsiya usullarini amalga oshirganlar.

Ma'ruzaning ta'minlanishi:

- Ma'ruza bo'yicha jadvallar

Tekshirish uchun savollar:

- Tibbiyot tarixi fanining maqsadi va vazifalarini aytib bering.
- Tibbiyot tarixi fanining fan sifatida shakllanishida hissa qo'shgan olimlarning va ularning ishlarini aytib bering.
- Arxeologik manba tarmoqlarining turlarini ayting.
- YOzma asarlarning turlari to'g'risida ayting.
- Diniy-mistik nazariya va ilmiy-materialistik nazariya tarafdorlarining tibbiyotini aytib bering.
- Birinchi tibbiy muolajalari qanday kelib chiqqan?

Asosiy va qo'shimsa adabiyotlar:

1, 2, 4, 5.

Ma'ruza №2

**Qadimgi G'arb mamlakatlarida tibbiyotning rivojlanishi
(Yunoniston, Rim, Vizantiya va boshqa mamlakatlar). – 2 soat.**

Mavzuning maqsadi:

Talabalarga Qadimgi G'arb mamlakatlarida tibbiyotning rivojlanishida Gippokrat, Galen, Abu Bakr ar-Roziy va boshqa allomalarning qo'shgan hissalarini bilan tanishtirish.

Kutilayotgan natijalar:

Talabalar ma'ruza eshitgandan so'ng bilishlari kerak:

- Tibbiyot xudosi deb nom olgan Asklepiy haqidagi ma'lumotlarni.
- Kroton, Knidos va Kos maktablarida olib borilgan davolash usullari.
- Gippokratning tibbiyot sohasida qilgan ilmiy amaliy ishlarini.
- Gippokratning davolash prinsiplarini va yozgan asarlarini.
- Galenning qilgan kashfiyotlarini.
- Vizantiya va Arab xalifaligi mamlakatlarida tibbiyotning rivojlanishida katta hissa qo'shgan tabiblarni.
- Abu Bakr ar-Roziyning xayoti va faoliyatini, uning yozgan asarlarini.

Ma'ruzaning rejalari:

- Gomerning «Iliada» poemasida tibbiyot to'g'risidagi ma'lumotlar.
- Kroton, Knidos va Kos maktablari haqida ma'lumotlar.
- Asklepiy va uning avlodlarini tibbiyotda tutgan o'rni, nazariy va amaliy tibbiyotga asos solishdiga ahamiyati.
- Gippokrat, uning asarlari va ilmiy tibbiyotga kiritgan yangiliklari va hozirgi tibbiyotda qo'llanilishi.
- Galen tibbiyot sohasidagi kashfiyotlari, asarlari.
- Vizantiya va Arab xalifaligi mamlakatlaridagi tibbiyot.
- Abu Bakr ar-Roziyning tibbiyot sohasidagi ishlari va asarlari.

O'qituvchining 2-ma'ruza bo'yicha izoxi:

Qadimgi Ovrupa mamlakatlarida tibbiyotning rivojlanishi. Ovrupa hududida qadimgi zamonda eng rivojlangan mamlakatlar YUnoniston va Rim edi. Bu mamlakatlardan o'sha davrda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish jihatdan boshqa Ovrupa mamlakatlari-dan ancha ilgari ketdi. Ma'naviy hayot va ilm-fan sohasida buyuk kashfiyotlar qilindi. Bu mamlakatlarda o'nlab buyuk olimlar, faylasuflar, san'at va adabiyot namoyondalari etishib chiqdi. Fanning hamma sohalari, ayniqsa aniq fanlar (falakiyot ilmi, riyoziyot, jug'rofiya, tarix va .x.k) yuksak darajaga etdi. San'at va badiiy adabiyot sohasida o'nlab o'lmas asarlar (skulptura komplekslari, poemalar, dramalar) yaratildi. Tibbiy maktablar ochilib xam yuksak u erda bo'lajak tabiblar o'qitila boshladi. Har bir shahar va o'lka o'z tibbiyot maktabiga (uyushmasiga) ega bo'ldi. Bu uyushmalarda tibbiyotning ko'p nazariy va amaliy masalalari ishlab chiqildi. SHu yo'sinda tibbiyot ancha yanada rivojlandi va yangi diagnostika va davolash usullari bilan boyildi. YUnoniston va Rim tibbiyoti o'sha vaqtdagi Ovrupa tibbiyoti fanining rivojlanishida muxim rol o'ynaydi.

Qadimgi YUnoniston tibbiyoti. Qadimgi YUnoniston tibbiyoti-ning tarixini o'rganishda biz uchun eng dastlabki manba Xomerning (Gomer) «Iliada» poemasidir. Bu asarda yunonlarning Troyan ostonalaridagi jang tafsilotlari yoritilgan. Xomer bu urushda yunonlar armiyasi qismlarida tabiblar ham qatnashganini ko'rsatib o'tadi.

Troyan urushi eramizdan oldingi XII asrda «1193-1184 yillar» bo'lib o'tgan deb yozilgan. Demak, yunonlarda eramizdan oldingi XII asrdagidek xarbiy tibbiyot mavjud bo'lgan.

Xomerning «Iliada» asari bilan bir muhim rivoyat bilan bog'liq bu poemada bayon etilishicha, Troyan urushida, keyinroq tibbiyot xudosi deb nom olgan tabib-Asklepiy qatnashgan. Uning Maxoan va Podaliriy nomli ikki o'g'li bo'lgan va Xigieya xam Panakeya ismli qizi bo'lgan. Bular xam tabib bo'lgan va YUnon askarlarini davolashda qatnashganlar. Maxoan jarrohlik qilgan, Padaliriy esa terapevt ichki kasalliklarni davolovchi bo'lgan.

YUnon tasviriy san'atida Asklepiy ilon o'rab olgan tayyoqcha (hassaga) suyanib turgan baquvvat chol kishi sifatida tasvir etilgan. Uning qizi Xigieya esa qo'lida ilon o'ralib olgan qadah ushlab turgan go'zal bir qiz sifatida tasvirlanadi. Ilon o'rab olgan qadah tibbiyot ramzi sifatida qabul qilingan. Buning ma'nosi shuki, tabib ilon kabi dono va aqlli bo'lishi kerak. Qadimgi zamon odamlari ilonni juda dono va aqlli hayvon deb bilganlar.

Xigieya har qanday kasalliklardan saqlanish yo'llarini bilgan, uni salomatlik xudosi deb ataganlar. SHuning uchun kasalliklarning oldini oluvchi usullarni o'rganuvchi fanni Xigiena (Gigiena) deb ataganlar. Panakeya esa har qanday kasallikka xam davo bo'ladigan dori tayyorlash usulini bilgan. Bu dorini panaciya deb ataganlar. Panaciya so'zi hozir ramziy

ma'noda ishlatiladi. Maxoan haqida ma'lumot yo'k. Padaliriyga kelsak, rivoyatlarda yozilishicha, uning barcha kelgusi avlodlari xam tabiblik ishi bilan shug'ullanganlar.

Asklepiy bilan bog'liq bo'lgan rivoyatda yana bir jixat bor. Rivoyatda aytilishicha, Asklepiy onasidan o'zi tug'ilmagan. Uni otasi Apolon «quyosh xudosi», onasi Kronidaning qornini yorib olib, kesarcha kesish usuli bilan chiqarib olgan. Bu rivoyat shuni ko'rsatdiki, qadimgi yunon tibbiyotida eramizdan oldingi XII asrdagidek kesarcha kesish usuli ma'lum bo'lgan. Demak, o'sha vaqtda jarrohlik va ayollarni davolash yuksak darajada rivojlangan. Qadimgi YUnonistonda tabiblar juda yuksak darajada baholanganlar.

Qadimgi YUnoniston shaharlarida odamlarning sog'ligini saqlash tadbirlarini amalga oshirish va uni tekshirib turish uchun maxsus tabiblar tayinlanganlar. Bu bilan sog'liqni saqlash ishlariga birinchi qadam qo'yilgan. Tabiblar o'zaro birlasha boshlaydilar, ular ayrim shaxar va o'lkalar orollarda tibbiyot maktablari uyushmalari tashkil etdilar.

Kroton maktabi. Kroton tibbiyot maktabi Italiyada tashkil etilgan edi. O'sha vaqtda YUnoniston Italiya koloniyasi bo'lgan. Kroton maktabining olimlari inson organizmining tabiati masalasini aniq ishlab chiqqanlar. Bu masalada Kroton maktabi vakillari faylasuf Anaksimening hamma narsaning asosini havo tashkil etadi, degan fikriga asoslanadilar. Bu ta'limni tibbiyot sohasiga Alkmeon (eramizdan oldingi VI asrda yashagan) olib kirgan, tibbiyotda pnevmatik nazariyani joriy etdi.

Alkmeon praktik tabib sifatida ko'p tajribaga ega. U yaxshi anatom xam bo'lgan. Alkmeon birinchi bo'lib ko'rish nervini kashf etdi. Evstaxiy nayini topdi. Bosh miyani tekshirib unda fikrlash va idrok etish xususiyatini borligini aniqladi.

Kroton maktabi vakillaridan yana biri Diogen edi. U eramizdan oldingi III asrda yashagan. Diogen xam anatom bo'lgan. U yurak va qon tomirlarini tekshirib yurakning o'ng qorinchasida qon, chap qorinchasida esa bo'shlik, shuningdek vena qon tomirlarida qon, arteriyalarida esa bo'shlik borligini aniqlagan. SHunga asosan u yurakning chap qorinchasida va arteriya tomirlarida havo yurar ekan, deb tomirlarga «Aera» (Arteriya), ya'ni havo tashuvchi tomir deb nom berdi. Bu yanglish nom xozirgacha saqlanib kolgan.

Knidos maktabi. Knidos tibbiyot maktabi shu nomli shaxarda tashkil topdi. Bu maktabga Evrifon asos solgan. Bu maktabdan bizgacha «Ichki mkasalliklar» nomli kitob etib kelgan. Knidos maktabining vakillari kasalliklar belgilarini sinchiklab o'rganishga aloxida e'tibor berishgan. Ular tibbiyot amaliyotiga, yangi dorilardan oxak, oq tuproq, sarimsoqpiyoz kabilarni kiritdilar. Knidos maktabi amaliy tibbiyot sohasida ayniksa muvaffaqiyat qozondi.

Knidos maktabi vakillarining eng muxim yutug'i shundan iboratki, ular kasalliklar patogenezinini (rivojlanishi yo'llarini) ishlab chiqqanlar. Bu tushunchaga binoan, kishi organizmidagi suyuqliklar odam sog'ligi vaa kasalligini belgilaydi. SHunday qilib, patogenez nazariyasi ishalb chiqildi.

Kos maktabi. Kos tibbiyot maktabi qadimgi YUnonistonning kos orolida vujudga keldi. Kos maktabining eng yirik namoyondasi mashhur Xippokratdir. Bu olim eramizdan oldingi V-VI asrda yashagan.

Kos tibbiyot maktabining asosiy xarakterli tomoni shundan iboratki, bu maktab amaliy tibbiyotni yuksak darajaga ko'tardi. Xususan, jarrohlik sohasida katta yutuqlarshga erishgan. Bu maktab tibbiyotga asos solgan. Xippokrat va Kos maktabining boshqa namoyondalari jarrohlik texnikasini mukammal ishlab chiqqanlar. CHunki yoki singan qo'l va oyoqni davolashda ularni o'z tibbiy xoliga keltirishda alohida ahamiyat berganlar. Kos maktabining

yashnagan davri eramizning asrlariga to'g'ri keldi. Bu davrda eng yirik tabib va olim Xippokratning hayoti va ijodi davridir.

Xippokrat. Jaxon tibbiyoti tarixida Xippokrat aloxida o'rin egallaydi. Xippokrat eramizdan oldingi 460 yilda Qadimgi YUnonistonning Kos orolida tug'ildi. Uning hamma o'tmish avlodlari tabiblar kasbi bilan shug'ullangan. Otasi Xeraklid (Geraklid) tabiblar avlodidan edi.

Rivoyatlarga ko'ra Xeraklid o'tmish avlodi kadimgi afsonaviy tabib Padoliriyga borib taqaladi, u esa o'z navbatida iloxiylashtirilgan tabib Asklepiyning o'g'li xisoblanadi. Xippokratning bobosi Xippokrat deb atalgan. Umuman, bu avlodda uchta Xippokrat bo'lgan. Biz so'z yuritayotgan Xippokrat uchinchisidir. Xippokrat ona tomondan xam tabiblar oilasiga mansub. Onasining o'tmish avlodlari xam tabiblar bo'lganlar.

Xippokrat tabiblar oilasida dunyoga keldi va shu oilada tarbiya topdi. U tabiblik san'atini dastlab o'z otasidan o'rgandi. Ammo Xippokrat o'z bilimi va tajribasi bilan o'zini ilgarigi barcha avlodlaridan o'tib ketdi va juda erta shuxrat qozondi.

Xippokrat sayyoh tabib edi, ya'ni ko'p sayohat qilar, ko'p mamlakatlarda bo'lar, o'sha erlardagi odamlarning turmush tarzi va urf-odatlarini bilan tanishardi. Bundan tashqari, mamlakatning tabiiy sharoiti, iqlimi, suvi, havo va boshqa tabiiy sharoitlarni o'rganib qaytardi. U erlarda uchraydigan kasalliklarni tekshirardi.

Xippokrat odam organizmining tuzilishi va insonning tabiati haqidagi masalani o'sha zamon fani nuqtai nazaridan to'g'ri ifodalab berdi. Uning tabib va olim sifatidagi eng katta xizmatlaridan biri shuki, u odam organizmi tabiatini (xususiyatlarni) belgilab berdi. Xippokrat odamlarni tabiatan to'rt toifaga bo'ladi. Bu toifalarning kelib chiqishini dunyoning to'rt tomoni (sharq, g'arb, shimol, janub) bilan bog'ladi.

Xippokrat to'g'ri ovkatlanishga juda katta ahamiyat bergan. Uning fikricha har qanday ovkat maxsulotida ma'lum darajada o't moddasi, qon moddasi, shilliq moddasi va suv moddasi bo'ladi. Kishi iste'mol qiladigan ovqatdan shu moddalar bir xil muvozanatda bo'lsa, salomatlik saqlanadi. Agar muvozanat buzilsa, kasallik paydo bo'ladi. Bemorlarning a'zolarini paypaslab ko'rish (palpatsiya), barmoq bilan tuqillatib (perkussiya), quloq qo'yib eshitish (auskultatsiya) usullarini qo'llagan.

SHunday qilib, kasalliklarni aniqlash usullarini takomillashtirdi. Kasallik patogenezini masalasida Xippokrat «Qraziya» va «Diokraziya» nazariyasida turgan.

Hippokrat tibbiyotga yangi prognostika bobini kiritdi. Prognostika, ya'ni kasalning taqdirini oldindan bilish juda muximdir. Tabib o'z tadbirlarini shunga qarab belgilaydi. Olimning tibbiyotga qo'shgan katta xizmatlaridan biri shuki, u tibbiyot tarixida birinchi bo'lib xar bir bemorga «kasallik tarixi» tuzishni joriy qildi. SHu «kasallik tarixi»ga yozib olingan ma'lumotlarni umimlashtirib, turli kasalliklarning asosiy belgilari, ularning kechishi va oqibati haqida hulosalar chiqariladi va umumiy davo choralarini ko'riladi. Bu bilan tibbiyot amaliyoti va nazariyasi boyitildi.

Tibbiyotda Hippokrat shug'ullanmagan biror soha bo'lmagan. U tibbiyotni deyarli hamma masalarini o'sha davr fani darajasida mukammal amaliy jihatdan to'g'ri ifodalab bergan. Kasalliklarni davolash masalasida Xippokrat qarama-qarshilikni qarama-qarshilik bilan davolash principiga asoslangan.

Hippokrat bemorlarni davolashda asosan ikki usuldan foydalangan. Bulardan biri xigienik parhez usulini amalga oshirish, ikkinchi dori-darmondan foydalanish. Odam har qanday kasallikni oldini olishni birinchi galdagi vazifa deb bilgan. SHuning uchun u xigienik-

parhez usulini birinchi o'ringa qo'ygan. Dori-darmon masalasida ko'proq organizmni o'rgatuvchi moddalardan foydalangan.

Hippokrat maxsus davolash prinsiplari ishlab chiqqan. Qarama-qarshilikni qarama-qarshilik bilan davolash prinsipi. Bu erda Hippokrat tabiatda doimo ikki qarama-qarshi kuch bir-biriga qarshi turadi degan falsafiy tushunchaga asoslandi. Odam organizmida ham shunday, shunga asosan Hippokrat bemorning xarorati ko'tarilgan bo'lsa, isitmani tushuruvchi, ichi ketsa, ichni to'xtatuvchi, siydigi tutilib qolgan bo'lsa, siydik xaydovchi dorilar berish kerak deydi.

Organizmning o'z tabiatiga yordam berish prinsipi. Hippokrat odam tanasiga kasallik bilan kurashuvchi tabiiy kuch bor deb bilar edi. Davolash asosan shu kuchni kuchaytirishdan iborat bo'lmog'i zarur.

Bemor tanasi va uning kuchini asrash prinsipi. Bu erda Hipokart bemor tanasiga nisbatan juda extiyotkorlik bilan muolaja qilinishi, uning kasallikka qarshi kuchini kamaytirmaslikni uqtiradi. Yana bu erda Hippokrat bemorga beriladigan dorini xam almashtiraverish kerak emasligini ta'kilaydi. Faqat juda zarur bo'lganidagina dorini va muolaja usullarini o'zgartirish mumkin.

Hippokrat o'z shogirdalari bilan katta tibbiy asar yozib qoldirgan. U «Hippokrat to'plami» deb ataladi. «Hippokrat to'plami» 72 ta katta-kichik kitobcha va maqolalardan iborat. SHulardan 12 tasi Hippokratning o'z qalamiga mansub, qolganlarini uning shogirdlari (o'g'il-qizlari, kuyovi va boshqalar) yozganlar. Hippokratning o'zi tomonidan quyidagi asarlar yozilgan: «Havolar, suvlar va joylar», «Tibbiy qasam», «Bosh jarohatlari», «Richag», «Moslama», «Qonun», «Aforizmlar» («Hikmatli so'zlar»), «Qadimgi tibbiyot haqida».

«Hippokrat to'plami» Samarqand tibbiyot oliy bilimgoi professori I.V.Rudnev tomonidan yunon tilidan ruschaga tarjima kilinib, uch tomli qilib chiqarilgan. Birinchi tomi «Tanlangan asarlar» deb atalgan, ikkinchi va uchinchi tomlari «Asarlar» deyilgan. «Hippokrat to'plami» tibbiy qasamyod bilan boshlanadi. Uni ko'pincha «Hippokrat qasamyodi» deb ataydilar.

Hippokrat umrining oxirida Larisa shahrida yashab, (377 yilda), 83 yoshda vafot etgan. SHahar aholisi uning xalq oldidagi alohida xizmatlarini taqdirlab, boshiga oltin gulchambar kiygizgan edi. Ammo Xippokrat buyuk tibbiyot olimi sifatidagi xizmatlari faqatgina Larisa shahri aholisi oldidagina emas, balki butun jahon halqlar oldida bebahodir.

Qadimgi Rim tibbiyoti. Rim tibbiyotining tarixini o'rganishda mashhur tibbiyot olimi Klavdiy Galen va o'sha zamonda yashagan boshqa buyuk xakimlarninig asarlari biz uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu asarlarda o'sha zamon G'arbiy Ovrupa tibbiyoti va uning erishgan yutuqlari haqida ma'lumot berilgan.

Rimning markazlashgan kuchli davlati sharoitida, tibbiyotning yanada tez sur'atlar bilan rivojlanishi uchun qulay sharoit vujudga keldi. Avvalo, armiya va flot tabiblari vazifalari ta'sis etildi. Ko'p minglik armiyani jangovar xolatda saqlash uchun ularning sog'ligini saqlash chorlarini ko'rish zuarur edi. SHu tariqa gospitallarda va harbiy lagerlarda ishovchi harbiy tabiblar ko'paydi.

SHunisi qiziqki, dastlab rimliklar, ayniqsa, yuqori tabaqaga mansub kishilar (patriciylar) davolash ishlari bilan shug'ullanmaganlar. Ular bu ishni o'zlariga noloyiq ish deb bilar edilar. Davo ishlari bilan ko'proq qullar yoki boshqa mamlakatlardan (masalan YUnonistondan) kelgan xakimlar shug'ullanar edilar. SHu sababdan Kadimgi Rimning

mashhur tabiblari asosan yunonlar bo'lgan. Masalan, Asklepiad, Galen kabi mashhur Rim xakimlari asli kelib chiqishlari jihatidan yunon edilar.

Asklepiad (eramizdan oldingi 131-56 y.y.) asli o'zi yunonlik bo'lgan. U afina va iskandariyada ta'lim olgan va mashhur xakim bo'lib etishgan. U eramizdan oldingi 95 yilda Rim shahriga ko'chib kelib, umrining oxirigacha shu erda yashaydi.

Asklepiad ham Hippokrat kabi odam tabiati maslasida atomistik nazariyaga asoslanadi. U atomlarni zarrachalar deb ataydi. Olimning fikricha, shu ko'zga ko'rinmas mayda zarrachalar organizmda mavjud bulgan juda nozik naychalar orqali doimo harakatda bo'ladilar. Biror sabab bilan shu zarrachalar yo'lida to'siqlik paydo bo'lsa, shu joy o'zgarib, kasallik paydo bo'ladi.

Davolash masalasida Asklepiad quyidagi principga amal qilishni tavsiya etadi. Bemorni ishonarli, tez va azob bermaydigan usullar bilan davolash kerak. U bemorga azob beradigan jarrohlik usullarini juda kam ishlatgan. Ammo o'zi yaxshi jarroh edi. U birinchilardan bo'lib, traxeotomiya usulini ishlab chiqqan. Bemorlarni davolashda tabiiy omillardan, masalan, toza havo, massaj kabi usullarni tavsiya etgan. Jismoniy chiniqishdan keng foydalangan.

Klavdiy Galen. Antik dunyoning mashhur tabiblaridan biri – Klavdiy Galen edi. U jahon tibbiyoti tarixida Hippokratdan so'ng eng yirik olim va tabib sifatida shuhrat qozondi. U o'z zamonasida buyuk nazariyotchisi, olim, anatom, eksperimentator, tabib sifatida ma'lum edi. Galen jahon tibbiyoti tarixida katta iz qoldirdi.

Klavdiy Galen 131 yilda Pergam shahrida dunyoga keldi. Uning otasi Nikon mashxur arxitektor bo'lgan. U ancha badavlat odam bo'lganligi uchun o'z o'g'li Klavdiyga yaxshi tarbiya va bilim bera oldi.

Klavdiy Galen yoshligidayoq atrof tabiatga qiziqqa boshladi. Tabiiy bilimlar va tibbiyotga qiziqib o'rgandi. Klavdiyning zehni va idroki shu qadar zo'r ediki, u 14 yoshidayok falsafa asarlarni, xususan Aristotel va Ploton asarlarini bema'lol mutolaa qila boshladi. 17 yoshiga etganda Asklepiyon deb ataluvchi kasalxona va tibbiy maktabga qatnab, tibbiyotni o'rganishga kirishdi. Smirn, Korinf va Iskandariya shaharlarida yashab, bu shahardagi olimlardan anatomiya, fiziologiya va amaliy tibbiyotdan bilim oldi.

Iskandariyada Galen 9 yil yashib, tibbiyotning hamma nazariy va amaliy sohalarini o'zlashtirib oldi va yuksak bilimli tibbiyot olimi darajasiga etdi. So'ng o'z tug'ilgan shahri Pergamga qaytib keldi. Bu erda 4 yil yashab gladiatorlar maktabida tabiblik qildi. Galen chuqur bilim va yaxshi amaliy tajribaga ega bo'lganligi uchun kasallar va jarohatlangan gladiatorlarni muvaffaqiyat bilan davolardi. Buning natijasida u katta shuhrat qozondi 164 yilda Galenni Rimga, imperator Mark Avreliy saroyiga taklif etdilar va uni imperatorning saroy tabibi vazifasiga tayinladilar.

Mark Avreliy o'lgandan so'ng Galen uning Kommodning shaxsiy tabibi bo'lib qoldi. Saroy tabibi vazifasini o'tash ancha vaqtni olar edi. Lekin Galen imperator, uning oilasi va saroy amaldorlarini kasalliklardan davolabgina qolmay, bo'sh vaqtlarini kitob o'qish, turli tajribalar o'tkazish bilan shug'ullanardi.

U anatomik va fiziologik tekshirishlar qildi. Anatomiya sohasida Galen bir qancha kashfiyotlar qildi. Galen yurak va tomirlar ishini chuqur o'rgandi, anatomiya va fiziologiya fanini ancha boyitdi. Galenning eng katta xizmatlaridan biri shuki, u birinchi bo'lib tibbiyotda tajriba usulini joriy qildi.

Galen tajriba yo'li bilan odam miyasining asosiy funkciyalarini aniqlab berdi. Tibbiyotda odam miyasi organizmidagi boshqa bezlar kabi katta bezdir, degan fikr surar edi. Galen bu fikrning noto'g'ri ekanligini isbot etdi.

Galen o'zining tajriba usullari bilan tanada qonning tomirlari-dagi harakatini ko'rsatib berdi. Ammo bunda bir hatoga yul qo'ydi. U qon aylanish sistemasining markazi jigardir, deb o'ylagan edi. Uning fikricha, qabul qilingan ovqat jigarda qonga aylanib, tomirlarga tushadi va tomir orqali a'zolarga borib, shimilib yo'k bo'lib ketadi. Galen yurakning o'ng qorinchasi bilan chap qorinchasi o'rtasida ochiq yo'l bo'ladi, bu orkali o'ng qorinchadan chap qorinchaga o'tadi, deb o'ylagan edi. Galen kasalliklarning kelib chiqishi masalasida o'sha davrdagi tushunchaga binoan xumoral nazariyaga asoslangan. U odam tanasidagi turli suyuqlik sog'ligini xam kasallikni xam belgilaydi, deb tushunar edi.

Galen juda iqtidorli olim bulgan. U fanning ko'p sohalariga oid (400 dan ortiq) asarlar yozgan. SHulardan ko'pchiligi tibbiyotning turli sohalariga bag'ishlangan. Ularda, xususan, tibbiyotning barcha nazariy amalmiy sohalari bayon etilgan. Bundan tashqari Galen enciklopedist olim sifatida falsafa, riyoziyot, grammatika, logikaga oid ham asarlar yozgan.

Galenning tibbiyotga oid eng muhim asarlaridan «Anatomik tekshirishlar», «Odam tanasi qismlarining ahamiyati», «Tabiblik san'ati», «Davo usullari», «Tananing kasallangan a'zolari haqida», «Dorilarning tarkibi haqida», «Higiena», «Hippokratcha qoidalar» va x.k.. Galenning ko'p asarlari Rimda o't ketgan vaqtda yonib ketgan. Bizgacha uning faqat yuzga yaqin tibbiy asarlari etib kelgan. «Tabiblik san'ati» va «Davo usulir»da Galen o'zining tibbiyotga bo'lgan munosabati, tibbiyotning ahamiyati va uning vazifalari haqidagi o'z fikrlarini bayon etgan.

Galenning tibbiyotga oid eng yirik asarlaridan biri «Odam tanasi qismlarining ahamiyati» nomli kitobdir. Bu asar 17 jildan iborat bo'lib, unda odam organlarining funkciyalari haqida so'z yuritiladi. Galen anatomiya va fiziologiya fanlarini bir-birilari bilan juda bog'liq fanlar deb bilgan.

Vizantiya tibbiyoti. Bu mamlakatlarda fan va madaniyat IX-XI asrlarda, ayniqsa, yuksak darajaga ko'tarildi. Bu erda yirik olimlar, faylasuflar, san'at namoyondalari va tabiblar etishib chiqdi. Tibbiyot sohasida xam muhim muvaffaqiyatlarga erishildi.

Vizantiya shaharlarida tibbiy maktablar ham bo'lgan. Bu maktablar ham ibodatlar ta'sirda edi. U erda ta'lim-tarbiya ishlari ibodatxona dasturi asosida olib borildi. Ibodatxonalar qoshida kasalxona va tibbiy maktabdan tashqari etim-esirlar va kimsasiz qari-nogironlar uchun ayrim xonalar ajratildi.

Vizantiya olimlarining eng asosiy xizmati shunday iborat bo'ldiki, ular o'zlari yirik asarlar yaratish bilan birga antik dunyo fani va madaniyatini saqlab qolishga katta hissa kushdilar. Vizantiyada yashab ijod qilgan tabiblardan – Oribaziy, Aeciy Eginskiy va Tralskiylar ayniqsa shuhrat qozondilar.

Orizabiy (326-403) asli Pergamlik bo'lgan. U Vizantiya hoqoni YUliyan saroyida shohning shaxsiy tabibi sifatida xizmat qilgan. CHuqur bilim va katta tajribaga ega bo'lgan bu olim o'zidan oldin o'tgan YUnoniston, Rim va boshqa mamlakatlar olimlarining asarlarini o'rganib, ularni bir erga jamlab «Sinopsis» («To'plam») deb ataluvchi kitob yozgan. Orizabiyning o'z fikr va tajribalari ham yoritilgan.

Aeciy, Tralskiy, Eginskiy xam Vizantiyaning yirik tibbiyot olimlaridan edi. Aeciyning tibbiyotga oid 16 jildlik asari bo'lgan. Kitobda ichki kasalliklar bayon etilgan. Tralskiyning otasi ham tabib bo'lgan. Bu olim 12 jildlik tibbiy asar yozgan. Pavel Eginskiy xam mashhur tabib

bo'lgan. U jarroh sifatida tanilgan. Bu olimlar qadimdan Vizantiya tibbiyotining klassiklari hisoblanishadilar.

Arab xalifaligi mamlakatlarida tibbiyot. Arablarning o'z tibbiyotiga kelsak, u avvalo, ularning diniy muqaddas kitoblari bo'lmish «Qur'on» va «Hadis»da o'z ifodasini topgan edi. Bu kitoblarda tibbiyot, salomatlik va kasallikdan xoli bo'lish masalalariga oid ko'p hikmatli so'zlar, maslahatlar va tavsiyanomalar bor. Salomatlikni saqlash masalasida birinchi turmush poklik va sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilish qo'yilgan.

Arabistonda «diniy tibbiyot»dan tashqari amaliy-ilmiy tibbiyot ham bo'lgan. Bu tibbiyot, ayniksa VIII-X asrlarda rivojlandi.

«Hadis»da yuqumli kasalliklarning oldini olish choralariga alohida ahamiyat berilgan. «Qur'on»da kayf beruvchi ichimliklar va giyohvandlarni iste'mol qilishni ta'qiqlaydi. Bu jihatdan musulmon dini boshqa dinlarga nisbatan o'zining ustunligini ko'rsatadi.

Abu Bakr ar-Roziy (Abu Bakr Muxammad ibn Zokariya ar-Roziy) 865 yilda hozirgi Eronning kadimgi Ray shahrida badavlat oilada tug'ildi. Roziy dastlab ko'p bilimlar bilan shug'ullangan. Keyinchalik kimyo bilan qiziqib qolib, bu fanni chukur o'zlashtirib olgan. U kimyo fani sohasida bir qancha kashfiyotlar qilgan. Masalan, u azot va gugurt kislotasini kashf etgan al-koxolni sof holda olgan. Nihoyat, tibbiyot sohasiga o'tib bu kasbni mukammal o'zlashtirib olgan va mahshur tabib bo'lib etishgan.

Abu Bakr ar-Roziy tabiblik ishi bilan kechroq yoshi 30larga yaqinlashganda shug'ullana boshlagan. U tabiblikka oid kitoblarni o'qishga kirishadi. Lekin aslida Roziy tibbiyotni boyish uchun o'rgangan emas, aksincha, u davolash uchun ko'p bemorlardan pul so'ramas edi. Kambag'al beva-bechoralarni bepul davolardi.

Abu Bakr ar-Roziy tibbiyot bilimini kech o'rgana boshlashiga qaramay, bu sohani juda tez va mukammal bilib olgan. U o'z faoliyatini dastlab Ray shahridagi kasalxonada ishlashdan boshladi. Kasalxonada o'z tajribasini yanada orttirdi.

Abu Bakr ar-Roziy shifoxonada bemorlarni parvarish qilish va davolashni yuksak darajada tashkil etdi. Roziyning tabiblik va ilmiy faoliyati haqida o'zib ketganda, shuni alohida ta'kidlash kerakki, u musulmon dinning ta'qiqlashiga qaramay, anatomik tekshirishni olib borgan. Buni shundan ham bilsa bo'ladiki, Roziy odam organlarining tuzilishi haqida o'zidan oldin o'tgan olimlardan aniqroq va batafsilroq ma'lumot to'plagan.

Roziy ancha tajribali jarroh xam edi. Tarixchilarning yozishicha, u birinchi bo'lib bint ishlatgan. Uning yuqumli kasalliklar haqidagi fikrlari va amaliy ishlari xam tahsinga sazovordir. Umuman, Roziy bilmagan va davolamagan kasalliklari bo'lmagan.

Abu Bakr ar-Roziyning tibbiyotga oid asarlaridan eng muhimlaridan biri – «Mansurga bag'ishlangan tibbiyot kitobi» Bu asar Xuroson shohi Abu Saxl Mansur ibn Isxoqqa bag'ishlangan. Uning muhim asarlaridan yana biri «Chechak va qizamiq» nomli kitobidir. Bu kitob xam tabiblar o'rtasida keng tarqalgan edi. Uchinchi muxim asari «Tibbiyotning xamma sohalari haqida kitob» bo'lib, u kitob 25 jildan iboratdir. Kitobning nomidan ma'lumki, tibbiyotning hamma sohalarini o'z ichiga qamrab oladi.

Abu Bakr ar-Roziy o'z zamonasining eng ilg'or fikrli kishisi bo'lgan. U tibbiy mutaxassis sifatida faqat kasallarni davolash bilan cheklanib qolmay, xalq sog'ligini saqlash muammolari bilan xam shug'ullangan.

Ma'ruzaning ta'minlanishi:

- Ma'ruza bo'yicha jadvallar.

- Mavzu bo'yicha rasmlar.

Tekshirish uchun savollar:

- Asklepiy va uning avlodlari tutgan urni haqida gapirib bering.
- Kroton tibbiyot maktabi to'g'risida nimalarni bilasiz?
- Hippokratning hayoti to'g'risida gapirib bering.
- Hippokratning tibbiyotga qo'shgan hissalari haqida aytib bering.
- «Hippokrat to'plami» asari haqida gapirib bering.
- Hippokrat qasamyodini yoddan ayting.
- Galenning kashfiyotlari va hatosi nimalardan iborat?
- Galenning tibbiyotga oid eng muxim asarlarini haqida aytib bering.
- Vizantiya tibbiyoti va tabiblari haqida gapirib bering.
- Arab xalifaligi mamlakatlaridagi tibbiyot haqida gapiring.
- Abu Bakr ar-Roziyning tibbiyotga kirib kelishidagi rivoyatlarini ayting.
- Ar-Roziyning tibbiyot sohasidagi kashfiyotlarini va asarlari to'g'risida.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar:

1, 2, 4, 5.

Ma'ruza №3

**Qadimgi SHarq mamlakatlarida tibbiyotni rivojlanishi
(O'rta Osiyo, Xitoy, Hindiston, Misr, Eron va boshqa mamlakatlar)
– 2 soat.**

Mavzuning maqsadi:

Talabalarga Qadimgi SHarq mamlakatlarida amaliy tibbiyotga ilk bor diagnostika va davolash usullarini kiritishga hissa qo'shgan allomalar to'g'risida ma'lumotlarni o'rgatish.

Kutilayotgan natijalar:

Talabalar ma'ruza eshitgandan so'ng bilishlari kerak:

- Misr papiruslari to'g'rsidagi ma'lumotlarni.
- Misr tabiblari: Erazistrat va Xerofillarning tibbiyot sohasi-dagi ishlarini.
- Van SHu Xening «Ney-Czin» kitobi to'g'risida.
- Xitoy tabiblarining davolash usullarini.
- Ayur Vedalarda berilgan ma'lumotlarni.
- Sushrutani tibbiyotga qo'shgan hissasini.
- «Avesto» kitobida keltirilgan tabiblar haqida.

O'qituvchining 3-ma'ruza bo'yicha izoxi:

Qadimgi Misr tibbiyoti. Qadimgi Misr tibbiyoti papirus deb ataluvchi yozma manbalarda bayon etilgan. Tarixchi olimlar tibbiyotga oid bir necha papirus yozuv manbalari mavjudligini aniqlaganlar. SHulardan birinchisi Imhoteb papirusidir. Buni Imhotebning o'zi yozgan deb faraz qiladilar. Bundan tashqari, yana Georg Ebers, Edvin Smit, Brugsha degan

olimlar nomi bilan ataluvchi papiruslar xam Britaniya tibbiy papirusi bor. Yana bulardan tashqari Kahun papirusi mavjudligi haqida ma'lumot-lar bor.

Bu papiruslar qatorida, ayniqsa, sazovori Georg Ebers papirusidir. Bu papirus eramizdan oldingi 1500 yillarda yozilgan deb tahmin qiladilar. Papirusda asosan turli dorilar, ularni qaysi kasalliklarda va qanday usulda ishlatilishi bayon qilingan, dorilarni qo'llashda yil fasli, bemor yoshi, kasallik og'ir yoki engilligi, bemor ahvoli hisobga olinishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan. Chunki dorining ta'sir etishi shu omillarga bog'liq deyiladi, kitobda. Kishi yoshiga alohida e'tibor berilgan. Masalan, bolalar yoshiga qarab dorini ishlatish usuli boshqakcha bulgan. Hunonchi, bir xil kasallik bilan og'rikan turli yoshdagi bolaga dori xab shaklida berilsa. Shu kasallik bilan og'rikan chaqaloqqa dori maydalanib, sutga qo'shib berilishi kerakligi ko'rsatilgan. Qadimgi Misr tibbiyotining xarakterli xususiyatlaridan biri shu ediki, xar bir kasallik uchun juda turli-tuman receptlar ishlatar edi. Tabib moxirligi kasalga mos recept tuza olishi bo'lgan.

Misr tabiblari asosan har xil shifobaxsh o'simliklardan foydalangan, qisman hayvonot mahsulotlarini ham ishlatganlar. Misr tabiblarining fikricha, xar bir kasallikda qo'llaniladigan dori recepti albatta murakkab bo'lishi zarur. Ba'zi receptlar 30-40 ingredientlardan, ya'ni alohida moddalardan tashkil topgan.

Qadimgi Misr tabiblari qorinda (ichaklarda) gijjalar bo'lishini xam bilganlar. Misr tabiblari yozib beradigan receptlar tuzilishi xozirgi receptlarga o'xshaydi, balki undan ham to'larokdir. Chunki dori qanday kasallikda qo'llanishilishi xam ko'rsatilgan.

Georg Ebers papirusi o'sha vaktida ma'lum bo'lgan kasalliklar va ularni davolash usullari ma'lum bir tartibda bayon etilgan. Xar bir a'zoning kasalligi uning belgilari va shu kasallikda ishlatiladigan dorilarning receptlari berilgan.

Jarrohlik kasalliklaridn – har xil jarohatlar chiqqan-singanlarni davolash va xatna qilish bayon etilgan. Jarrohlik haqida Edvin Smit papirusidan to'laroq ma'lumot berilgan. Unda har xil a'zolarining jarrohlik kasalliklari boshdan boshlab, tananing quyi tomonlaridagi a'zolarigacha batafsil bayon etilgan.

Misr tabiblari alohida kasalliklar bo'yicha ixtisoslashganlar. Tabiblar kosmetika bilan xam shug'ullanganlar. Tish kasalliklari bo'yicha mutaxassislar kasal tishni davolash va tuzatib bo'lmaydiganini olib tashlash bilan cheklanib qolmay, tishni plombalash usulini xam bilganlar.

Misrliklarnig tushunchasiga ko'ra, odam o'lgandan keyin (agar uning jasaki saqlanib qolsa) uning ruxi yashashda davom etadi va Mahshargohda bu ruh odam tanasiga qaytishi mumkin. Shu tushnchaga asosan fir'avnlr, saroy amaldorlari va juda badavlat kishilar o'lganlaridan so'ng ularning jasaki balzamlangan. Buning uchun jasadni yorib, uning tomirga balzam yuborilgan. Shu asosda odam organizmining xalqlariga nisbatan yaxshiroq bilganlar. Umuman, Misr tabibilari odam anatomiyasi haqida to'larok tushunchaga ega bo'lganlar. Eramizdan oldingi IV asr boshlarida Makedoniyalik Iskandar (Iskandar Zulqarnayi) Misrni bosib oladi va bu erda Iskandariya deb nom olgan shaharni barpo etadi. Bu shahar tez orada o'sha davrdagi ilm-fan markazlaridan biriga aylanadi, madaniyat yuksaladi. Bu madaniyatga Qadimgi YUnon va SHarq madaniyati qo'shilib ketdi. Bu erda fanning hamma sohasi, shu jumladan, tibbiyot ham bo'lgan. Xakimlardan ikki kishi – Erazistrat va Xerofil ayniqsa mashhurdir.

Erazistrat asli o'zi kichik osiyolik, eramizdan oldingi III asrda yashagan (290 yilda vafot etgan) III asr boshida Iskandariyaga ko'chib kelib, shu erda yashab ijob etgan. Erazistrat dastlab odam organizmining xususiyatlari, harakat jarayonini o'rganishdan boshladi. Shu maqsadda u ko'p anatomik tekshirishlar o'tkazdi va buning natijasida bir necha kashfiyot qildi.

U yurak va qon-tomirlarini ham anatomik va fiziologik jihatdan tekshirdi, yurak harakatini ko'zdan kechirdi. Yurak va yurak dahlizi xamda yurak va aorta tomiri o'rtasida qopchoqlar borligini aniqladi. Qorin bo'shlig'idagi a'zolari tekshirib, ichak peristaltika tufayli ovqat mexanik jihatdan ishlanishi haqida fikr yuritdi. Bu fikr so'ngi tekshirishlarda tamomila tasdiqlandi. SHunday qilib, Erazistrat birinchi bo'lib, odam anatomiyasi va a'zolari funkciyasining ba'zi muxim masalalari haqida to'g'ri fikr yuritgan va buni anatomik tekshirishlar yo'li bilan isbotlab bergan.

Iskandariyalik ikkinchi olim Xerofil edi. Bu olim eramizdan oldingi 300 yilda tug'ilgan. Xerofil ham o'z faoliyatini anatomiyani o'rganishdan boshladi. U miya, jigar va yurakni sinchiklab tekshiridi. Miyaning to'rtinchi qorinchasi kattaroq ekanligini aniqladi. Yurakni tekshirib, uning harakatida uch davr – sistola, pauza va diastola davrlari bo'lishni kuzatdi.

Kasalliklarning sababchilari masalasida Xerofil idealistik fikrda edi. Lekin davolashda fakat diniy usullarni qo'llamay, dori-darmonlardan ham foydalanish kerakligini uqtirdi. Xerofilning fikricha, har bir kasallikning o'ziga xos maxsus dorisi bo'lishi kerak. Olim juda murakkab receptlar ishlatgan.

Qadimgi Xitoy tibbiyoti. Xitoy- fan, madaniyat va tibbiyot yuksak darajada rivojlanlangan qadimgi sharq mamlakatlaridan biri edi. Qadimgi Xitoy tibbiyotini o'rganishda asosiy manba bo'lib «Ney-Czin» («Odam tabiati va hayoti») nomli kitob xizmat kiladi. Bu kitob «Xuandi Ney Czin» deb yozilgan, deb taxmin qilinadi.

Odam organizmining tuzilishi va uning tabiati haqida Qadimgi Xitoy tabiblari samoviy elementlar nazariyasi poziciyasida turganlar, ya'ni ular butun borliq to'rt samoviy element (er, suv, havo, olov)dan iborat bo'ladi, binobarin, odam organizmining asosini xam shular tashkil etadi, deb o'ylaganlar.

Kasalliklarni davolashda Qadimgi Xitoy tabiblari boshka xalqlarga bo'lmagan o'zlariga xos usullari ishlab chiqqanlar. SHu usullardan eng mashhurlari uchta – moksa, massaj va igna sanchib davolash usullaridir.

Moksa usuli kasal a'zoni, shu a'zoni qoplab turuvchi terini, quritilgan turli o'simliklarni tutatib, qizitishdan iborat bo'lgan. Moksa usuli ilmiy jihatdan foydali ekanligi isbot etilgan. Massaj usuli xam keng qo'llanilgan. Bu usul oyoq-qo'li yoki butun tanani xushbo'y, moysimon moddalar bilan uqalashdan iborat. Qadimgi Xitoyda ishlab chiqilgan va bu mamlakatda eng keng tarqalgan davo usli akupunktura, ya'ni igna sanchib davolash usulidir. Bu usul bir necha ming yillik tarixga ega. Bu usul hozir xam tiklandi va klinikalarda qo'llanmokda.

Qadimgi Hindiston tibbiyoti. Qadimgi SHarqning buyuk davlatlaridan biri Hindistondir. Bu mamlakat ham qadimiy an'analarga boy. Qadimgi Hindiston tibbiyoti tarixini o'rganishda asosiy manba bo'lib Ayur Veda hisoblanadi. «Ayur Veda» so'zi «hayotni bilish» – degan ma'noni bildiradi. Bular – Atreyn Ayur Vedasi, CHaraki (Xaraki) Ayur Vedasi va Sushruta Ayur Vedasi. Bular ichida Sushruta Ayur Vedasi alohida e'tiborga molik.

Sushruta tibbiyot tarixida birinchi bo'lib yallig'lanish jarayonining belgilarini tuliq ko'rsatib bergan. Bular – shish paydo bo'lishi, qizarish, shu joyning harorati oshishi, og'riq paydo bo'lishi va yallig'langan a'zo funkciyasining pasayishidan iborat. Kasalliklarni davolashda qadimgi hind tabiblari ayniqsa, Sushruta juda mohir bo'lgan. Davolashda ishlatiladigan dorilar 800 ga yaqin bo'lgan. Bular orasida o'simliklar, mineral moddalar va hayvonlar a'zolaridan tayyorlangan dorilar ko'p uchraydi.

Qadimgi hind tabbiyotida jarrohlik usuli juda ham rivoj topgan edi, ayniqsa Sushruta juda mohir jarroh bo'lgan. Jarrohlar qovuqda paydo bo'lgan toshni chiqarib olish, churrani

operaciya qilish, qattiq jarohatlanib, ishga yaroqsiz bo'lib qolgan qo'l yoki oyoqni kesib tashlash, ko'z kataraktasini operaciya qilish usullarini amalga oshirganlar.

Qadimgi hind tabiblarining jarrohlik sohasidagi eng buyuk yutug'i plastik operaciyadir. Plastik operaciya sohasida ayniqsa, Sushrutaning o'zi mashhur bo'lgan. Sushruta burun, quloq, lab kabi organlarni plastik yo'l bilan amalga oshirgan. Plastik operaciyalarda ishlatiladigan jarrohlik asboblari juda xilma-xil va takomillashgan bo'lgan. Umuman, hind jarrohlari 200dan ortik bunday asboblarni ishlatganlar.

Qadimgi Eron tibbiyoti. Fan, madaniyat va tibbiyot ancha yuksalgan Qadimgi SHarq malakatlari qatoriga Eron (Forsslar mamlakati) ham kiradi. Eron tabiblari ham boshqa SHarq tabiblari singari kishi sog'ligi va kasallanishini to'rt suyuqlikga bog'liq deb tushunganlar. Ular kishi ruhiy holatiga alohida e'tibor berganlar.

Eron tabiblari kasallarni muvaffaqiyatli davolaganlar. Kasalliklarning oldini olishga alohida ahamiyat berganlar. Qadimgi Eronda tabiblarga nisbatan alohida talablar qo'yilgan. U o'z kasbini yaxshi egallagan bilimdon kishi bo'lmog'i, odamlarga nisbatan muloyim, xushmuomala, bemorlar bilan do'stona munosabatda bo'lishi lozim.

Qadimgi Eron tabiblari kasallikni aniqlashda tajribali bo'lganlar. Ular isitmali kasalliklar, xususan, bezgak, bavoril, chechak, trofik yaralar, dizenteriya, har xil yallig'lanish, parazitlar va ko'pgina teri kasalliklarni yaxshi bilganlar. Qadimgi Eronda tibbiyot o'z rivojlanishida ancha yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan.

Qadimgi O'rta Osiyo xalqlari tibbiyoti. Qadimgi O'rta Osiyo xududida istiqomat qilgan xalqlar tibbiyoti ham boshqa SHarq mamlakatlari tibbiyotiga o'xshash bo'lgan. Ayniqsa, Eron tibbiyoti bilan O'rta Osiyo tibbiyoti o'rtasida umumiylik sezilarlidir. Bu mamlakatlarning tabiiy-jug'rofiy sharoiti, hayot tarzi, ijtimoiy rivojlanish darajasi, an'analari, diniy e'tiqodlari (zardushtiylik) bir-biriga yaqin va ma'lum darajada ular o'rtasida umumiylik bo'lgan. O'rta Osiyo tibbiyotiga oid maxsus adabiyot hozircha topilgan emas. SHuning uchun bu o'lka tibbiyoti tarixini qo'shimcha manbalar orqali o'rganamiz. Mashhur yunon tarixchisi Xerodot (Georodot)ning yozishicha, o'sha zamonda O'rta Osiyoda kasalliklarni davolash bilan shug'ullanuvchi shomonlar ko'p bo'lgan.

O'sha davrda O'rta Osiyoda keng tarqalgan muolaja usullaridan biri - shomonlik bo'lgan. SHomonlik ibtidoiy jamoa davridan boshlanadi. SHomonning davolash usuli uzok vaqt davomida shovqin-suron beruvchi asbob chalib, to'xtovsiz turli harakatlar qilish yo'li bemor tanasiga kirib qolgan johil kasalni haydab chiqarishni ko'zda tutadi.

Xalq tibbiyoti haqida to'la ma'lumot beruvchi «Avesto» kitobida Qadimgi Eron, Ozarbayjon va O'rta Osiyo xalqlarining hayoti, turmush tarzi, urf-odatlar va diniy e'tiqodlari bayon etilgan. Avesto eramizdan oldingi oltinchi asrda yozilgan Abu Rayxon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asrda kitobning maullifini zardushtiylik dinining asoschisi – Zardusht ibn Safid Tumon deb ataydi. Avesto zardushtiylik dinining aqidalari va qonun-qoidalaridan iborat. Avesto dastlab 21 qismdan iborat bo'lgan. Uning dastlabki 7 kismi dunyoning kelib chiqishi va odamlar ahloq, kishilarning diniy akidaralarga bo'ysunishlari va hayoti qonun –qoidalarini bayon etilgan.

Birinchi kitob «Vendidat» deb ataladi. Bu kitobda jismoniy va ruhiy tozalanish qoidalarini bayon etilgan. Ikkinchi kitob «Vispered» deb atalib, bilish ma'nosini bildiradi. Uchinchi kitob «YAsna» deb atalgan. Bunda zardushtizmning qonun-qoidalarini bayon etilgan.

Biz uchun «Vendidat» kitobi muhimdir. Bu kitobda o'sha zamonda zardushtiylik dini mazxabida turuvchi xalqlarning (Eron, Ozarbayjon va O'rta Osiyo xalqlari) tibbiyoti haqida

ma'lumotlar bor. «Vendidat» 22 qismdan iborat. SHu qismlardan 8 tasida (V da XII gacha) tibbiy masalalar bayon etilgan. Oxirgi uch qismi aynan tibbiyotning o'zi haqida.

Avestoda yozilishicha, tibbiyotning kashfiyotchisi va birinchi tabib – Trita bo'lgan. Avestoni yaratgan payg'ambar deb ataluvchi Zardushtning fikricha shu «sog'lik va hayot manbai» hammani Trita kashf etgan, demak, u birinchi tabibdir. Avestoda ikkinchi tabibning nomi ham keltiriladi. U Yima deb atalagan. Bu tabib haqida quyidagi rivoyat bor: «Yima odamlarni har xil qurol-yarog', kema yasashga, mato to'qishga, tegirmon ko'rishga o'rgatdi. U birinchi bo'lib kishilarni tabiblik san'atiga ham o'rgatdi», – deb yozilgan. Avestoda hayotiy jarayonlar haqida qiziq fikr aytilgan: «Hayot – issiqlik muvozanati buzilishi natijasida organizmning yonib tugashidir. Xayot manbai olov va suvdir», – deb ko'rsatilgan.

Amaliy tibbiyotda kasallikning kelib chiqishiga el (shamol) sabab bo'ladi, deb ko'rsatilgan. Sovuq el tanani sovutadi, issik el qizdiradi. Issiq elda Axrimanning ko'zga ko'rinmas mayda zarralari bo'ladi deb faraz qilganlar. Kitobda yozilishicha, kasallikdan qutulish uchun faqat Ormuzdagi «yaxshilik xudosi»ga murojaat qilish kerak. Ammo amaliy jihatdan uch xil davolash usuli ko'rsatilgan. Bular 1) pichoq bilan davoash, ya'ni jarrohlik; 2) o'simlik bilan davolash; 3) so'z bilan davolash.

Tibbiyotning umumiy vazifasi haqida «Avesto»da to'g'ri fikr yuritilgan. Unda tibbiyotning asosiy vazifasi tanani sog'lom saqlashdir. Bu fikr bizning hozirgi zamon tushunchamizga mos keladi.

Salomatlikni saqlash uchun «Avesto» da bir qancha tadbirlarni tavsiya etadi. SHulardan birinchisi buzilib chirib borayotgan narsalarni uzoqda bo'lish. Ayniksa murda tanasiga yaqinlashmaslik zarur. Xomilador va tuqqan ayollar haqida alohida g'amxo'rlik qilish zarurligini to'g'risida ham kitobda uqtirilgan.

«Avesto»da tana ozodaligiga alohida ahamiyat berilgan. Unda kishilar ruhiy poklik bilan bir qatorda tana pokligiga ham alohida berilishi kerak deb yozilgan. «Avesto»da bayon etilgan zardushtiy dinida tabiatda va hayotda doim ikki qarama-qarshi kuch bir-biri bilan kurash olib boradi deyilgan.. Bu kurash tibbiyot olamiga ham taalluqlidir. Tibbiyotda ham sog'lik bilan kasallik o'rtasida doim kurash davom etadi.

O'rta Osiyo xalqlarining uzoq o'tmishdagi avlodlari Ardivisura – Anaxita nomli xudoga sig'inganlar. Bu haqda Avestoda Ardivisura-Anaxita odamlarning salomatligi haqida qayg'uradi, u xomilador va tuqqan ayollar haqida xomiylik qiladi deb yozilgan. Avesto xalq tajribasiga asoslangan amaliy tibbiyot bilan diniy aqidalarga ishonadigan fantastik tushunchalar ham mavjud. O'rta Osiyo xalqlari tarixida «Bibi Mushkul Kushod» ismli ayol ham ma'lum. U odamlarni har xil darddan forig' qiladi, deb o'ylaydilar. Otinlar Bibi mushkul kushod nomiga duolar o'qib, bemorlarni davolaydilar. Bunday otinlar «Bibi xalfa» deb ataydilar.

Ma'ruzaning ta'minlanishi:

- Mavzu bo'yicha jadvallar
- Mavzu bo'yicha rasmlar

Tekshirish uchun savollar:

- Misr papiruslari haqida nimalarni bilasiz?
- Georg Ebers papirusi haqida gapirib bering.
- Edwin Smit papirusida nimalar haqida yozilgan?

- Tabiblar Erazistrat va Xerofillarning tibbiyotda qilgan kash-fiyotlari to`g`risida gapirib bering.

- «Ney-Czin» kitobida tibbiyotning qaysi sohalari to`g`risida yozilgan?

- Xitoy tabiblarining davolash usullarini aytib bering.

- «Avesto» kitobida tibbiyot haqida nimalar to`g`risida yozilgan?

Asosiy va qo`shimcha adabiyotlar:

1, 2, 4, 5.

Ma`ruza №4

**O`zbekiston xududida O`rta asrlarda tibbiyotni rivojlanishi
(VIII-XIII asrlar). Arablar xukmronligi davrida Xorazm, Buxoro, Samarqand davlatlari
tibbiyoti - 2 soat.**

Mavzuning maqsadi:

Talabalarga O`zbekiston xududida O`rta asrlarda (VIII-XIII asrlar) tibbiyotni rivojlanishida katta xissa qo`shgan Xorazm, Buxoro, Samarqand davlatlari tabiblari haqida ularning tibbiyot sohasidagi yutuqlarini o`rgatish

Kutilayotgan natijalar:

Talabalar ma`ruzani eshitgandan so`ng bilishlari kerak:

- Xorazmda «Ma`mun Akademiyasi»ni tashkil qilinishi va unga a`zo bo`lgan tabiblarni

- Abu Abdulloh Ilohiy, Abu Sahl Masixiy, Umar CHag`miniy, Abu Mansur

Qamariylarning hayoti va faoliyati

- Najbiddin Samarqandiyni tibbiyotni rivojlanishidagi o`rni va tibbiyot haqidagi asarlarini

Ma`ruza rejalari:

- Xorazmshohlar davridagi tibbiyot, «Ma`mun Akademiyasi»ni tashkil qilinishi.

O`qituvchining 4-ma`ruza bo`yicha izoxi:

O`rta Osiyo davlatlarida O`rta asrlarda tibbiyotning rivojlanishi. O`rta asrlarda O`rta Osiyo davlatlarida fan va madaniyat yuksak darajaga ko`tarildi. Yirik shaharlarda ilm-fan markazlari- dorilfununlar, madarasalar tashkil etildi. Madrasalarda ko`plab talabalar ta`lim olar, ularga o`sha zamonning ko`zga ko`ringan yirik olimlari dars berardilar. O`rta Osiyo davlatlari fan va madaniyatning rivojlanishi jihatdan jahonda eng taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga chiqib oldi.

O`rta Osiyo olimlarining yaratgan tibbiy asarlari jahon tibbiyot ilm xazinasiga yirik durdonalar bo`lib qo`shildi. O`rta asrlarda O`rta Osiyo davlatlarida ilm-fan va madaniyatning yuksalishi, birinchi galda shu davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotda ro`y bergan ijobiy omillar bo`lsa, ikkinchidan o`sha vaqtdagi davlat boshliqlarining fan va madaniyat axllarini qo`llab-quvvatlashlari natijasi edi.

Tarixda o'sha zamondagi Xorazm, Buxoro hamda Samarqand xokimlarining shunday ilm-fan xomiylari bo'lganliklari ma'lum. SHuning uchun bu xokimliklar xududida ilm-fan va tibbiyot ravnaq topgan edi.

IX-X asrga kelib jahonga mashhur bo'lgan qadimgi Xorazmning mav-qesi qaytadan ko'tarila boshladi. Arablar istilosi davrida parchalanib ketgan Xorazm davlati tiklandi. O'sha davrda xukmronlik qilgan shoh Ma'mun ibn Muxammad shimoliy va janubiy Xorazm shohliliklarni birlashtirib, yagona Xorazm davlatini barpo etgan. Xorazm siyosiy va iqtisodiy jihatdan bir butun davlat bo'lib taraqqiy eta boshladi. Uning poytaxti Gurganj o'z madaniy hayot va turli fanlarning rivoji jihatdan butun sharqqa mashhur bo'ldi. SHaharlarda turli xunarmandchilik, ishlab chiqarish, savdo-sotiq ishlari juda rivoj topdi.

Xorazm davlatining poytaxti O'rganch o'sha davrda katta karvon yo'llari tutashgan erda joylashgan bo'lib, mamlakatlararo savdo-sotiq ishlarida muhim rol o'ynardi. SHaharda juda ko'p masjid-madrasalar, bozorlar, hammomlar, xashamatli saroylar qurilgan edi. Bu erda me'morlar, san'at namoyondalari, faylasuflar, ko'p olimlar, shoirlar va tabiblar yashardilar. Xorazm shohlari ularga xomiylik qilardilar, ular olimlarga o'z saroylaridan joy berib, ularning yashashlari va ijodiy faoliyatlari uchun zarur sharoit yaratib bergan edilar.

Xorazmdagi olimlar shoh saroyida tashkil etilgan «Olimlar jamiyati»ga uyushgan edilar. Bu jamiyat tarixda «Ma'mun Akademiyasi» nomi bilan mashhur bo'lgan. «Akademiya»ga buyuk o'zbek enciklopedist olim Abu Rayxon Beruniy raxbarlik qilardi.

«Ma'mun Akademiyasi» Xorazmda turli fanlarni rivojlanishida juda muhim rol o'ynadi. Xorazmlik olimlar fanlarning hamma sohalarini yuksak darajada rivojlantirdilar. Mamlakat poytaxti Gurganchda va boshqa shaharlarda kasalxonalar va shifoxonalar barpo etilgan edi. Ularda tajribali xakimlar ishlardilar. Gurganchdagi kasalxonada bir qancha vaqt mashhur Ibn Sino va Abu Sahl Masixiy islaganlar. Ular kasallarni davolash bilan birgalikda turli xil kasalliklar ustida kuzatish ishlari olib borganlar.

Xorazmda yashab ijod qilgan mashhur xakimlardan biri SHarafuddin Abu Abudulloh Iloqiy (Ayloqiy)dir. Abu Abdulloh Iloqiy (SHarafuddin Abu Abdulloh Muxammad ibn YUsuf Iloqiy) asli Toshkent vohasidan bo'lgan. U vaqtda bu voha «Iloq» deb atalgan. Iloqiy dastlab SHosh madrasalaridan birida ta'lim olgan. So'ng o'z bilimini oshirish uchun Buxoroga keyin Gurganchga borib o'qigan. Iloqiy tibbiyotga juda qiziqar edi. Buxoro va Gurganchda Ibn Sino, Abu Sahl Masixiy, Abu Mansur Qamariy kabi buyuk tabiblardan ta'lim oldi va yirik tabib bo'lib etishdi. Gurganchda Iloqiy «Ma'mun Akademiyasi»ga qabul qilindi. Bu erda u o'z bilim va tajribasini yanada boyitdi. Iloqiy tibga oid «Kasalliklarning sabablari va belgilari», «Davolash usullari», «Tibbiyotdan to'plam», «Qisqartirilgan qonun» kabi asarlar yozgan.

Abu Sahl Masixiy (Abu Saxl Iso ibn YAXiya – al-Masixiy Jurjoni) tajribali tabib bo'lgan. O'zi Jurjon shahrida tug'ilgan. Masixiy tibbiyotdan tashqari falsafa, mantiq va boshqa fanlar bilan ham shug'ullangan. Olim nazariy va amaliy tibbiyotning hamma sohalarini chuqur o'zlashtirgan va bu sohalarga oid bir qancha asar yozgan. «Tibbiyotning yuzta masalasi», «Umumiy tibbiyot haqida kitob», «CHEchak haqida kitob», «Vabo haqida kitob», «Tibbiyot asoslari» kabi asarlari bizgacha ma'lumdur.

Abul Hayr Hammar (Abul Hayr ibn Sivor ibn Bexnom al-Hammar) o'sha zamon sharqining ko'zga ko'ringan tabiblaridan biri bo'lgan. U Xorazmda yashagan vaqtida tibga oid bir qancha asar yozgan. So'ng Mahmud G'aznaviyning taklifiga binoan G'azna shahriga ko'chib keladi. Bu erda u o'zining o'tkir bilim va zo'r tajribasi bilan G'aznaviyning xurmatiga sazovar bo'lgan. Abul Hayr Hammar tibga oid «Tabiblarning bilimni sinash», «Odam

a'zolarining tuzilishi», «Tutqanoq kasalligi haqida», «Keksa odamlarning ovqati haqida» asar yozgan. Bu asarlarning nomidan ma'lum bo'ladiki, Abul Hayr Hammar tibbiyotning muhim sohalari ustida ish olib borgan.

Ismoil Jurjoni (Zayniddin Abu Ibroxim ibn Xasan ibn Muhammad ibn Axmad al-Xusayin-Jurjoni) 1080 yilda Jurjon shahrida tug'ilgan. U yoshlik chog'ida zehni va zo'r kobiliyatga ega bola bo'lgan, ko'p narsaga qiziqqan. SHu sababli u tibbiy kitoblarni ko'p o'qib, yoshlik chog'idayok bu bilimni mukammal egallagan va bemorlarni davolashga kirishgan.

Jurjoni o'z tajribalari tufayli tez fursatda mashhur bo'lib ketdi va uni 1110 yilda o'sha vaqtdagi Xorazm shohi Kutbiddin Muhammad Anush Tegin o'z saroyiga xizmatiga chorlaydi. Saroyda shahsiy shoh tabibi vazifasini o'taydi. Gurganchda barpo etilgan kasalxonaga rahbarlik qiladi. Kasalxonada u har xil kasalliklarning kechishini sinchiqlab ko'zdan kechirib boradi. Bu sohadagi tajribalarini umumlashtiradi va asarlar yozadi.

Ismoil Jurjoni Xorazmda yashab ijod qilgan davri eng unumli davr bo'lgan. U Xorazmda tibbga oid o'zining eng asosiy asarlarini yozgan. O'rta asr tibbiyot tarixchilari Ibn Abu Usayba, Abul Xasan al-Bo'ha'iy va boshqalarning ko'rsatishicha, Jurjoni tibbiyotga oid ko'p asar yozgan. SHulardan eng mashhurlari «Xorazmshoh xazinasi», «Xastaliklarni aniqlash usullari», «Ibn Sino haqida so'z», «Tibbiyotning mohiyati», «Dorilar xazinasi»dir. Bu asarlar O'rta asr sharqi tibbiyotining rivojlanishida katta rol o'ynagan. Jurjoni Anush Tegin vafot etgandan so'ng uning o'g'liga biroz vaqt xizmat qilib, so'ng Xorazmdan ketgan, umrining oxirigacha Marv shahrida yashab, shu erda 1141yilda vafot etgan.

Umar CHag'miniy (Mahmud ibn Muhammad ibn Umar CHag'miniy) har taraflama chuqur ma'lumotga ega bulgan. Olim Buxoro viloyatidagi CHag'min qishlog'ida tug'ilgan. U Gurganchda yashab ijod qilgan va 1221 yilda shu erda vafot etgan. CHag'miniy Gurganchda ko'p fanlarni o'rgandi. So'ng Samarqandga kelib, o'z bilimi yanada oshirdi. Tibbiyotga ham juda qiziqqan va bu sohada ko'zga ko'ringan mutaxassis bo'lgan. Uning asosiy kitobi «Qonuncha» deb ataladi. Bu kitobda o'sha davrdagi amaliy tibbiyotning asosiy vazifalari qisqa va aniq tarqaldi va undan qo'llanma sifatida foydalandilar. CHag'miniy O'rta Osiyo tibbiyotida sezilarli iz qoldirgan.

Abu Mansur Qamariy (Abu Mansur Xasan ibn Nux al-Qamariy) tajribali tabib va olim bo'lgan. Bu olim Abu Mansur Buxoriy degan nom bilan xam atalardi. SHuning uchun uni Buxoro xokimi o'zining shaxsiy tabibi vazifasiga tayinlagan. Abu Mansur Qamariy tibb ilmidagi Abu Ali ibn Sinoning ustozlari bo'lgan. Qamariy Kadimgi YUnon, Rim, Vizantiya olimlarining asarlari bilan yaxshi tanish bo'lgan va o'zi ham asarlar yozgan.

Qamariy juda sinchqov tabib bo'lgan. U tomirlarni har taraflama tekshirib, so'ng tashxis qo'ygan. Bunda bemorning ahvoli, tashqi ko'rinishi, tomir urishi, siydikning tusi, tiniqligi va hakovzolari juda sinchqovlik bilan tekshirgan. SHuning uchun deyarli hamma vaqt bemorlar kasalini aniq belgilagan va muvaffaqiyatli davolagan.

Qoraxoniylar davridagi tibbiyot. X asr oxirida Buxoro xokimligi qoraxoniylar tomonidan zabt etildi. Somoniylar sulolasi tugatilib, qoraxoniylar sulolasi xukmronlik qila boshladi.

Qoraxoniylar ham mamlakatni iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirishga harakat qildilar. Tibbiyot sohasida xam ancha siljish yuz berdi. SHaharlarda kasalxona va shifoxonalar barpo etildi. Ularda tajribali xakimlar xizmat kilardilar. 1066 yilda Samarqand xukmdori Tamg'ochxonning farmoni bilan Samarqand shahrida kasalxona qurilib ishga tushirildi.

Kasalxona bilan bir vaqtda maxsus tibbiy madrasa xam barpo etildi. U tarixda «Tibbiy bilim maskani» nomi bilan ma'lum.

Kasalxonaga bosh tabib qilib, o'sha vaktdagi yirik xakimlardan biri bo'lgan Muhammad ibn Abdulmalik as-Safar tayinlangan. Madrasaga boshliq qilib mashhur olim Abu Toxir ibn Abduraxmon ibn Xasan al-Jazoliy saylangan. Kasalxonada kasallar yotadigan xonalardan tashqari, boquvchisi bo'lmagan qari-qartang va nogironlar uchun ham alohida xonalar (xujralar) ajratilgan. Kasalxona Ibroxim Tamg'ochxonning farmoni bilan vaqf jamg'armalaridan sarmoya bilan ta'minlangan.

O'sha vaqtlarda kasallarni davolashda qon olish usuli keng qo'llanilgan. SHuning uchun maxsus qon oluvchi mutaxassislar bulgan. Ular kasalxonadagi xodimlar qatoriga kirmay, alohida guruxni tashkil qilgan. Kasalxonada xech kimi yo'k, ishga yaroqsiz qari-qartanglar ham yashaganlar, ular vafot etganda, ko'mish kasalxona ma'muriyati zimmasiga tushgan. SHuning uchun go'rkovga 3 foiz pul ajartilgan. Kasalxonaning umumiy mablag'idan har yili dori-darmon sotib olish uchun 100 dirxam belgilangan.

O'sha vaqtlarda Gurganch, Marv, G'azna, Toshkent shaharlarida ham shunday kasalxonalar bo'lgan. G'azna shahridagi kasalxona qurilishda buyuk o'zbek olimi Abu Rayxon Beruniy ishtirok etgan. Bu kasalxonaga o'sha zamonning ko'zga ko'ringan tabiblaridan biri Abu Xamid an-Naxshiy rahbarlik qilgan. U jarroh ham bo'lgan. Abu Rayxon o'zi tabib bo'lmasa ham tibbiyotni yaxshi bilgan. U tibga oid «Dorivorlik haqida kitob» nomli asar xam yozgan. Bu asarda Beruniy mingga yaqin dorivor moddalarni har taraflama ta'riflab bergan.

Marv shahridagi kasalxonaga tajribali tabib Muhammad Azimxon rahbarlik qilgan. Bu kasalxonada ruhiy kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni davolaydigan alohida bo'lim ham bo'lgan.

Qoraxoniylar davrida Samarqand yana yirik ma'muriy, siyosiy va madaniy markazlardan biriga aylandi. Bu erda yirik olimlar, san'at namoyandalari va xakimlar yashardilar. Samarqandlik mashhur xakimlardan biri - **Najibuddin Samarqandiy** bo'lgan.

Najibuddin Samarqandiy (Najibuddin Abu Xomid Muhammad ibn Ali ibn Umar Samarqandiy). Bu olim uz davrining ko'zga ko'ringan tabiblaridan edi. Tug'ilgan yili ma'lum emas. U 1222 yilda vafot etgan. Bu olimning ismidan ma'lum bo'ladiki, u Samarqandda tug'ilgan. Samarqand o'sha vaktida SHarqning eng yirik ilmiy markazlaridan biri edi. Najibuddin Samarqandiy o'z bilimini shu shaharda olgan. So'ng boshqa shaharlarga borib, u erlarda o'z bilimini oshirdi.

Najibuddin Samarqandiy Qadimgi YUnoniston, Rim, Hindiston, Misr tibbiyoti bilan xam yaxshi tanish bo'lgan. U o'z asarlarida shu mamlakat olimlaridan Hippokrat, Galen va Sushrutalarni ko'p marta tilga oladi.

Olim nazariy va amaliy tibbiyotning barcha sohalariga oid ko'pgina asar yozgan. SHulardan bizga «Kasalliklarning sabablari va alomatlarini», «Bemor ovqati», «Bo'g'im kasalliklarini davolash», «Murakkab dorilar tayyorlash» kabi asarlari ma'lum. Bu asarlar o'rta asr SHarqi tibbiyotining rivojlanishida katta rol o'ynadi. Ulardan «Kasalliklarning sabablari va alomatlari» alohida o'rin tutadi. Kitobda ayrim kasalliklarni aniqlashda mullif bemorni har taraflama sinchiqlab tekshirish kerakligini uqtiradi. Kasalliklarning sabablari masalasida Samarqandiy mizojdan tashqari, tashqi muxitning zararli faktorlariga ahamiyat berish zarurligini ko'rsatdi. Olimning bu kitobi tabiblar o'rtasida keng tarqalib, u dastur rolini o'ynagan.

«Bemor ovqati» kitobida muallif har xil kasalliklarda bemorga qanday ovqat berish kerakligi masalalariga to'xtaladi. U turli kasalliklarga xos parxez tamolarini ishlab chiqqan. Olimning fikricha, ba'zi kasalliklarni faqat parxez bilan davolash mumkin.

Najibuddin Samarqandiyning «Murakkab dorilar tayyorlash» nomli asari alohida ahamiyatga ega. SHarq tabiblari ko'pincha murakkab receptlar tuzganlar. Bunda recept ba'zan bitta recept 30-40 moddadan iborat bo'lgan.

«Bo'g'im kasalliklarini davolash» asarida Najibuddin Samarqandiy suyak-bo'g'im kasalliklari (artritlar, artrozlar)ni aniqlash va davolash masalalariga to'xtaladi. Bunda boshqa tabiblarining fikrlarini keltirish bilan birga bu masalada o'z tajribalarini ham bayon etgan.

SHunday qilib, Najibuddin Samarqandiy O'rta Osiyoning o'sha zamondagi tajribali tib olimlaridan biri bo'lgan.

Tekshirish uchun savollar:

- «Ma'mun Akademiyasi» to'g'risida gapirib bering.
- Ismoil Jurjoniyning asarlarini ayting.
- Abu Sahl Masixiy, Abul Hayr Hammarlarning faoliyatini so'zlab bering.
- Najbiddn Samarqandiyning faoliyatini gapirib bering.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar:

1, 2, 3, 4, 5, 6.

Ma'ruza №5

Abu Ali ibn Sino, uning tibbiy fikrlari va tabiblik faoliyati – 2 soat

Mavzuning maqsadi:

Talabalarga buyuk alloma Abu Ali ibn Sinoning hayoti va tabiblik faoliyati to'g'risida to'liq, batafsil ma'lumotlar berish.

Kutilayotgan natijalar:

Talabalar ma'ruzani eshitgandan so'ng bilishlari kerak:

- Ibn Sinoning hayoti, uning ustozlarini.
- Uning asarlarini.
- Ibn Sino qo'llagan kasalliklarni sabablarini aniqlash, tashxis qo'yish va davolash usullarini.

- «Tib qonunlari» kitobining ahamiyatini.

Mavzuning rejalari:

- Ibn Sinoning boshidan kechirgan sarguzashtlari.
- Ibn Sinoni jaxon tibbiyotida tutgan o'rni.
- «Tib qonunlari» asarining Evropa va SHarq mamlakatlarida foydalanishi va uning ilmiy ahamiyati.

O'qituvchining 5-ma'ruza bo'yicha izoxi:

Abu Ali ibn Sino (Abu Ali al-Husayn ibn Abdullox ibn Hasan ibn Sino) 980 yilda (370 xijriy yilda) Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida dunyoga keldi. Afshona bir vaqtlar kattagina shahar bulgan. Vaqt o'tishi bilan u o'z mavqeini yo'kotib, aholi yashaydigan kichik bir qishloqqa aylanib qolgan va Ifsana qishlog'i deb atala boshlangan.

Ibn Sinoning otasi Abdulloh ibn Hasan asli Balxlik bo'lib, Buxoro amirligida boj yig'uvchi bo'lib ishlagan. U o'z vazifasiga ko'ra, afshonaga tez-tez borib turardi. Abdulloh shu afshonalik bir qizga uylangan. Bu oilada ikki ug'il tug'iladi. Bularning biriga Mahmud, ikkinchisiga Husayn (bulg'usi Ibn Sino) deb nom qo'yadilar. Ko'p o'tmay Ibn Sinolar oilasi Buxoroga ko'chib keladi.

Ibn Sino dastlab bilimini ayrim muallimlardan o'rgandi. U o'zining o'tkir zehni va zo'r qobiliyati tufayli tezda ustozlaridan o'tib ketdi va fanlarni mustaqil o'rganishga kirishdi. Ibn Sino o'z fikrlarining mantiqiy kuchi bilan hammaning qalbini rom qilardi. Nihoyat, Ibn Sino tabobat ilmiga qiziqib qolib, shu ilm bilan shug'ullana boshladi. Bu sohada shu qadar yuksak obro' qozondiki, hatto ko'zga ko'ringan xakimlar xam kasallikni aniqlashda qiynalganlarida Ibn Sinodan maslaxat so'raydigan bo'lganlar.

Abu Ali ibn Sino faqat tibbiy kitoblar o'qish bilangina cheklanib qolmay, bemorlarni xam davolar, ularning kasalliklarini sinchiklab ko'zdan kechirar edi. Buning natijasida uning bilim va tajribasi yanada oshib ketdi. Abu Ali ibn Sino o'n olti yoshidayok mashhur tabib bo'lib tanilgan. Bu albatta o'z-o'zidan bo'lmagan, balki sabot-matonat bilan o'qish, kechalari uyquni tark etish va zo'r tirishqoqlik natijasidir.

Abu Ali ibn Sinoning juda tajribali va mohir tabib ekanligi haqidagi xabar podsho saroyiga xam borib etdi. Bu vaqtda Buxoro xokimi Amir Nux ibn Mansur betob edi. Uni davolash uchun Ibn Sinoni ham saroyga chaqirdilar. Ibn Sino amirni davolashda ishtirok etib, o'zining o'tkir bilimi bilan kasallikni aniqlashga yordam berdi. Bu bilan u amirning ishonchiga sazovar bo'ladi va saroyga yaqin kishilar qatoriga kiradi. Buning natijasida Ibn Sinoning obro'si yana xam oshib ketadi. Saroyda nodir kitoblarga boy katta kutubxona borligini Ibn Sino bilardi. U shu kutubxonadagi tibga oid kitoblarni qunt bilan o'qib chiqadi. Boshqa fanlar sohasidagi kitoblar bilan ham tanishadi.

Nodir kitoblarni qunt bilan o'qish natijasida Ibn Sinoning bilim yanada kengaydi va chuqurlashdi. Ibn Sino yosh bo'lishiga qaramay Buxoroda uchta yirik asar yozgan. Bulardan biri «To'plam», ikkinchisi «Hulosalar va natijalar», uchinchi «Saxovat va jinoyat» haqida kitobdir. Bundan tashqari o'zining tabobatga oid birinchi asari «Tabobat lug'ati»ni yozgan. Bu kitobdan kup tabiblar nusxa ko'chirib olib keng foydalanganlar.

997 yilda Nux ibn Mansur vafot etdi. Uning taxtiga o'g'li ibn Nux Mansur II o'tiradi. Ibn Nux Mansur ibn Sino bilan do'st edi. Ibn Nux Mansur Ibn Sinoning saroydagi vazifalardan biriga tayinlagan. Ibn Sino saroy tabibi vazifasidan tashqari u erda davlat xizmatchisi vazifasini xam bajargan. Lekin kup o'tmay ibn Nux Mansur o'ldirilib, uning ukasi Abdul Malik ibn Nux egallaydi. U olim bilan unchalik yaqin munosabatda bo'lmaydi.

Abu Ali ibn Sinoni Xorazmda juda yaxshi kutib oldilar. U saroyda xizmat qiluvchi olimlar qatoriga kiritildi va «Akademiya»ga qabul qilindi. Ibn Sinoga boshqa olimlar qatori katta maosh tayinladilar. Abu Ali ibn Sino Xorazmga kelganda u erda Abu Rayxon Beruniy yo'k edi. Bu vaqtda Beruniy Eronning Ray shahrida yashardi.

Ali ibn Ma'mun o'zi chuqur ilmi, odil shoh edi. U ilm ahillarini juda ham qadrlardi. SHuning uchun Beruniyga katta xurmat bildirib, unga xat yozadi va o'z saroyiga taklif etdi. Ali

ibn o'z saroyidagi olimlarga boshliq qilib Beruniyni tayinlaydi. Beruniy akademiyaga rahbar bo'lib qoldi.

Ibn Sino bilan Beruniy bir-birlari bilan 1005 yilda Gurganjda uchrashadilar. Ular bundan ilgari bir-birlari bilan xat orqali tanishgan edilar. Abu Ali ibn Sino Xorazmda 9-10 yilcha yashadi. So'ng bu erdan xam ketishga majbur bo'ldi. Buning sababi shuki, qo'shni mamlakat xukmdori Sulton Mahmud Xorazmni bosib olish xavfi bor edi.

Ibn Sino bilan Abu Sahl Masixiy Sulton Mahmudga xizmat qilishni istamay Xorazmdan chiqib ketishadi. SHuning uchun u turar joyini tez-tez o'zgartirib, shahardan-shaharga ko'chib yurishga majbur bo'ladi. Abu Ali ibn Sino Jurjonga kelib, u erda to'rt yil yashaydi. Bu erda u o'zining bulgusi shogirdi Abu Ubayd al-Juzjoniylar bilan uchrashadi. O'zining tibga oid asarini shu erda davom ettiradi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Ibn Sino Jurjonda quyidagi asarlarni yozgan: «O'rtacha kiska mantiq», «Tib qonunlari»ning ayrim boblarini, «Almajtiyning qisqartmasi» va bir qancha kichik risolalar. Ibn Sino hammasi bo'lib Jurjonda 21 yirik va 2 kichik kitob yozib tugatgan.

Ibn Sino Jurjondan Ray shahriga jo'nab ketadi. Ammo Sulton Mahmud uni ta'qib etishni to'xtatmaydi. Ibn Sinoning Raydaligini bilib, xukmdor Sayidadan uni G'aznaga yuborishni talab qildi. Ask xolda Rayga qarshi urush ochishni bildiradi. Ammo zo'r idrokli va tadbirkor Sayida urushni oldini oladi. Lekin bari-bir Ibn Sino Raydan chiqib ketishga majbur bo'ladi.

Ibn Sinoning tibbiy fikrlari. Abu Ali ibn Sino o'z davridagi fanlarning hammasini mukammal o'zlashtirib, tabiiyki tibbiyot faniga alohida ahamiyat bergan va o'z kasbini asosan tabiblik deb bilgan. Aynan shu tabiblik sohasida uning talanti va qobiliyati yaqqol misol bo'ldi. Ibn Sino tabobat ilmining nazariyasi va amaliyoti sohasida chuqur bilimga ega edi. O'zining nixoyatda o'tkir zexni va chuqur bilimi tufayli tabobat olami sohasida uz davridan ancha ilgarilab ketdi.

Abu Ali ibn Sino tabib sifatida ulug' gumanist edi. U inson manfaatini doimo hamma narsadan ustun qo'yardi va shogirdlaridan ham talab etardi. Tibbiyotga oid nazmiy asari «Tibbiy Urjuza»da bunday deydi: - «Tabobat – bu salomatlikni saqlash va kasalliklarni davolashdan iborat». Bu fikr olimning shoh asari «Kitob ul al-qonun fit-tibb»da ayniqsa yaqqol o'z ifodasini topgan.

Ibn Sino amaliy tabobatni ikkiga bo'ladi. Bulardan biri, sog'glom tana rejimi, ya'ni salomatlikni saqlashga qaratilgan tadbirlar bo'lsa, ikkinchisi nosog'lom tana rejimidir. Bunda organizmni normal xolatga qaytarish ko'zda tutiladi. Ibn Sino butun umr organizmni turli yo'llar bilan chiniqtirish zarurligini tavsiya etadi. Har qanday tib olimi singari Ibn Sino ham tibbiyotning odam anatomiyasini sinchiklab o'rgangan. Ibn Sino odam anatomiyasini shaxsan o'zi tekshirgan, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, u biror a'zoning anatomiyasini bayon etishda uning funkciyasini ham ko'rsatib o'tadi. Olim har bir a'zoning anatomiyasini uning fiziologiyasi bilan bog'laydi.

Abu Ali ibn Sino organizmda sodir bo'luvchi hayotiy jarayonlarning tashqi muxit bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Bu bog'lanish a'zodagi suyuqliklar, xususan, tomirlardagi qon orkali amalga oshishini ko'rsatib bergan.

Ibn Sino xar bir bemorning o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishini utunmaslikni ta'kidlaydi. U bemor a'zosini bir butun va tashqi sharoit bilan bog'liq xolda tekshirishni tavsiya etadi. Bunda uning hayoti va turmush tarzini e'tiborga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Abu Ali ibn Sino klinik tibbiyot sohasida ham muxim kashfiyotlar qilgan. Masalan, u diabet kasalligi bilan ogʻrigan odamlarning siydigi shirin boʻlishini xamda bu siydik qaynatib, bugʻga aylantirilganda idishda oq choʻkma qolishni birinchi boʻlib koʻrsatib berdi. Ibn Sinodan etti asr oʻtgach, Angliya xakimi Tomas Uillis ham aytgan. Afsuski, bu kashfiyot shu olim nomi bilan ataladi, aslida esa uni Ibn Sino kashfiyoti deb atalgani toʻgʻri.

Ibn Sino klinitsist sifatida kishi sogʻlom yoki kasalligi nerv sistemasining muxim rol oʻynashiga alohida ahamiyat bergan. Olim kasallik paydo boʻlishida salbiy hissiyotlarning katta rol oʻynashini aniq koʻrsatgan.

Abu Ali ibn Sino bosh miyada sezish va firklash markazlari mavjud boʻlishi haqidagi fikrni birinchilardan boʻlib oldinga soʻrgan. SHunisi muximki, Ibn Sino kasallarni davolashda ularda shartli refleks xosil qilish yoʻli bilan ularga taʼsir qilishga ham uringan. Umuman olganda, Ibn Sinoning asab sistemasining tuzilishi va uning funkciyasi haqidagi fikrlari koʻp jihatdan xozirgi zamon tushunchasiga mos keladi. Kasallik paydo boʻlishi sabablari masalasida Ibn Sino oʻsha davrda keng tarqalgan rutubatlar nazariyalari nuqtai nazarida turar edi.

Abu Ali Ibn Sinoning fikricha, mizojning muvozanatdan chiqishi ikki xil – oddiy va murakkab boʻlishi mumkin. Oddiy muvozanat buzilishida toʻrt xil mizojdan biri ustun boʻlib koladi, yaʼni yo issiklik, yo quruqlik, yoki namlik ustun keladi. Issiq va sovuq mizojlar – aktiv mizojlardir. Qolgan ikkitasi – quruq va nam mizojlar esa passivlardir.

Ibn Sinoning fikricha, mizoj sifati bir butun aʼzogagina emas, balki har bir aʼzo va sisetmasga ham xosdir. U mizoj tabiiy sharoit va iklimga ham bogʻliqligini taʼkidlaydi. U har bir qitʼadagi odamlar uchun alohida mizojga hosdir, deb tushuntiradi.

Abu Ali Ibn Sinoning «Qonun» kitobida yozilishicha, «issiklik» deganda turli fiziologik jarayonlarni aktivlashtiruvchi omillar va xolatlar koʻzda tutilgan. Fiziologik va patologik jarayonlarning moxiyatini tushinishda Ibn Sino uchun falsafiy kosmik unsurlar nazariyasi, pnevma va rutubatlar haqidagi tushunchalar asosiy manba boʻlib xizmat qilgan. Umumiy davolash usullari masalasida Ibn Sino diskariziya, yaʼni suyuqliklar muvozanatining buzilishi va uni tiklash tushunchasiga asoslangan.

Ibn Sino qon olishning uch usulini ishlatgan. Birinchisi tomirni uzunasiga tilish, ikkinchisi – qonni korik yordamida soʻrib olish, uchinchi usul – zuluk solish. U oʻz tajribasida parxez bilan davolashdan ham keng foyladangan. Bu usul asosan bir oz vaqt emaslik yoki oz-oz miqdorda juda engil ovqatlar isteʼmol qilishdan iborat. Ibn Sino har bir kasal uchun oʻziga xos parxez tavsiya etgan. Uning fikricha, ovqatning oʻzi issiklik yoki sovuqlik xususiyatga ega boʻlganligi uchun maʼlum darajada organizmga ijobiy taʼsir etadi. Ibn Sino koʻrsatishicha, meʼda-ichak kasalliklarida parxez xal qiluvchi rol oʻynaydi.

Ibn Sino turli kasalliklarning belgilari va sabablarini sinchiklab tekshirib chiqqan. U oʻsha vaqtda maʼlum boʻlgan koʻpgina kasalliklarning yuqumli ekanligini isbotlab berdi. Masalan, chechak va qizamiq yuqumli kasalliklar qatoriga kiritdi. Ibn Sino yuqumli kasalliklar mavjud ekanligini isbotlab qolmay, ularni bir kishidan ikkinchi kishiga yuqish va tarqalish yoʻllarini ham koʻrsatib bergan. Ibn Sino kasalga tashxis qoʻyishda oʻxshash belgiga ega boʻlgan kasalliklardan bir-biriga taqqoslab koʻrardi. Ularni bir-biriga ajratish kerakligini uqdirardi. Meʼda-ichak kasalligiga uchragan bemorlarni davolashda Ibn Sino dastlab ichni tozalash lozimligini uqtirardi. Hippokrat ham ishni shundan boshlar edi.

Klinik tibbiyotning murakkab va qiyin sohasi - asab sistemasi kasalliklarini aniqlash va davolash sohasi bulgan. Bu soha antik YUnoniston va Rim tabiblari tomonidan ham etarli

ishlab chiqilmagan edi. Ibn Sino bu masalalarga ancha aniqliklar kiritdi. Ibn Sinoning fikricha, ruhiy kasalliklar o'z kelib chiqishi nuqtai nazaridan somatik kasalliklardan farq qilmaydi.

Ibn Sino o'z davrining mohir jarrohi ham edi. U bir kancha operaciyalarni o'zidan oldin o'tgan tabiblarga nisbatan muvaffaqiyatli o'tkazardi. Ibn Sino jarohatlar toza va zararlangan bo'lishi mumkinligini bilgan. Uning ko'rsatishicha, jarohat yiringlamay bitsa, u toza yaradir. Yiringlagan jarohatni u achib qolgan qatiq yoki chirigan xo'l mevaga o'xshatadi.

Abu Ali Ibn Sinoni pediatriya ilmiining asoschilaridan biri deb aytish mumkin. U bola organizmi faqat o'zining kichikligi bilangina emas, balki o'z xususiyatlari bilan xam kattalarnikidan farq qilishini birinchilardan bo'lib kursatgan edi. Ibn Sino o'z asarlarida bolalarni to'g'ri ovqatlantirish va tarbiyalash masalalarig alohida ahamiyat bergan. Uning yosh bolalar salomatligini ko'zdan kechirib turish, ularni sog'lom tarbiyalash usullari haqidagi fikrlari diqqatga sazovardir.

Abu Ali Ibn Sino o'z tajribasida ko'proq murakkab dorilarni ishlatgan. Buning sababi haqida gapirib, olim dorining ta'sirini kuchaytirish yoki shu dorida yo'k xususiyatni padoy kilish zarurligi tug'iladi, deydi. Ibn Sino birinchilardan bo'lib davolashda mineral suvlardan ham foydalangan.

Ibn Sinoning asarlarning soni haqidagi to'g'ri ma'lumotni Eron olimi YAx'ya Maxvadi beradi. Uning ko'rsatishicha, Ibn Sinodan 244 ta asar qolgan. SHulardan ham faqat 132 tasi esa Ibn Sinoning asari ekanligini aniqlanmagan.

Ibn Sinoning tibbiyotga oid asarlari ro'yxati 55 ta nom ko'rsatilgan. Ammo bularning 32 tasi aniq Ibn Sinoniki deb hisoblanadi. Abu Ali Ibn Sinoning tibga oid eng brinchi asosiy kitobi «Tib qonunlari kitobi»dir. «Tib qonunlari kitobi» Ibn Sinoning shoh asaridir. SHu kitob tufayli u butun jahonga mashhur bo'ldi. «Tib qonunlari» katta tarixiy ahamiyatga ega. Kitob o'z davrida tib ilmining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ibn Sino o'z kitobida faqat o'tmish davr tibbiyotini umumlashtiribgina qolmay, balki uni o'z tajribalari bilan boyitgan. Bu asar 5 kitobdan iborat. Ularning har biri tib ilmining ayrim sohasiga bag'ishlangan.

Ibn Sinoning «Sayyohlarning rejimi haqida risola», «Xarbiy qo'shinlar manzilgohi», «Sog'lom tana haqida maqola» nomli asarlari xam gigienik masalalarga bag'ishlangan.

Ibn Sino tomir urushini sinash haqida maxsus asar yozgan. Asar 9 qismdan iborat bo'lib, kitobning boshida tomir haqida umumiy tushuncha berilgan. So'ng tomir urishining belgilari, uning xususiyatlari va xillari bayon etilgan.

Abu Ali ibn Sino – O'rta Osiyo tibbiyotining klassigi hisoblanadi. U O'rta Osiyoda ilmiy tibbiyotga asos soldi. Uning eng muxim hizmatlaridan biri shuki, o'z faoliyati va ilmiy asarlari bilan O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan amaliy-nazariy tibbiyotni umulashtirib, uni boshqa SHarq va G'arb mamlakatlari tibbiyoti erishgan yutuqlar bilan boyitib bir butun sistemaga keltirdi.

Ma'ruzaning ta'minlanishi:

- Ibn Sino qachon, qaerda va qanday oilada tug'ilgan?
- Ibn Sinoning ustozlari kim?
- Ibn Sino qaysi davlatlarda bo'lgan?
- Ibn Sinoning tibbiy fikrlari.
- «Tib qonunlari kitobi» to'g'risida gapirib bering.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar:

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7.

Ma'ruza №6

Temur va temuriylar davridagi tibbiyot – 2 soat

Ma'ruzaning maqsadi:

Talabalarga bobokalonimiz Amir Temur, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiylarning mamlakat madaniyatini, ayniqsa, tibbiyotni rivojlanishida qilgan buyuk xizmatlarini ko`rsatib berishdan iborat.

Kutilayotgan natijalar:

Talabalar ma'ruzani eshitgandan so`ng bilishlari kerak:

- Amir Temur farmoni bilan qurdirilgan tibbiy muassasalarni, kutubxona, tibbiy maktablar va boshqa muassasalarni.

- Ulug`bekni tibbiyotni rivojlanishida qo`shgan hissasini.
- Alisher Navoiyning tibbiyotni rivojlanishidagi beqiyos xizmat-lari.
- Xirot tibbiy kompleksi haqida ma'lumotlarni.

Mavzu rejalari:

- Amir Temur, Ulug`bek, A.Navoiy, Husayn Bayqaro xukmronligi davridagi tibbiyot.
- Amir Temur «Temur tuzuklari» asrida tibbiyot masalalari.
- «Kitob gumbazi» va Temur akademiyasida faoliyat ko`rsatgan tibbiy allomalarni tutgan o`rni.
- Xirot tibbiy kompleksi.

O`qituvchining 6-ma'ruza bo'yicha izoxi:

Temuriylar davridagi tibbiyot. XIV asrning 60-70 yillariga kelib O`rta Osiyo xududida yirik va kuchli temuriylar davlati vujudga keldi. Bu davlatning asoschisi Amir Temur Movaraunnaxr, Xuroson, Xorazm, Oltin O`rda, Eron, Hindiston, Iroq, Turkiya va boshqa mamlakatlarni birlashtirib, buyuk Temuriylar imperiyasini barpo etdi. Temur bu mamlakatlarning barcha boyliklaridan foydalanib, o`z davlatining iqtisodiy va madaniy jihatdan juda yuksak darajaga ko`tardi. Fan, madaniyat, san`at va adabiyot yuksak darajaga ko`tarildi. Kasalxonalar, dorixonalar, tibbiy maktablar, kutubxona barpo etildi. Madrasalarda boshqa bilimlar qatorida tibbiy bilimlar xam o`qitila boshladi.

Temur davrida tibbiyot fani yuksak darajaga ko`tarilgan ediki, u vaqtda hatto o`lgan odam jasadini balzamlash usulini ham bilganlar. Masalan, Temurning o`zi, Bibixonim va nabirasi Muhammad Sultonning qabrlari ochib ko`rilganda, ularning jasadi mumiyolanganligi aniqlangan. Ularning qabrlariga har xil xushbo`y dorivor moddalar sepilgan ekan. Muhammad Sultonning qabridan rayhon barglarining qoldig`i topilgan.

Temur ilm ahllarini qo`llab-quvvatlagan, har turli fanlarni ayniqsa, amaliy ahamiyatga ega bo`lgan fanlar rivojlanishining tarafdori bo`lgan. U uzi zabt etgan mamlakatlardan faqat oltin, kumushlarni emas, balki nodir kitoblarni xam olib kelardi. Temur kitoblarni juda qadriga etardi.

Amir Temur o`z zamonasidagi ijtimoiy guruxlarni o`n ikki toifaga bo`lgan. SHular katorida tabiblar, munajjimlar va muxandislar bir toifaga kiritilgan. Ularni saltanatga rivoj beruvchi deb atagan. SHifoxonalarda ishlovchi tabiblarga yaxshi maosh to`langan. Temurning maxsus farmoni bilan ularning maoshiga tenglashtirilgan. Temur obodonchilikka, shaharlarning

ozoda saqlanishiga katta e'tibor bergan. Ayniqsa, poytaxt Samarqandni obod qilishga ko'p harakat qilgan.

Temur davrida aholining moddiy-ma'naviy va madaniy jihatdan yaxshi yashashiga katta e'tibor berilgan. Xalqning sog'ligini saqlash, bemorlarni davolash, etim-esirlar haqida g'amho'rlik qilish sohasida muxim ishlar amalga oshirilgan.

Temur va temuriylarning Movaraunnaxrda tibbiyotning rivoj-lanishidagi rollari.

Ulug'bek (Muhammad Tarag'ay Ko'rag'oni) faqat davlat arbobi bo'libgina qolmay, shu bilan birga buyuk olim sifatida ham mashhur. Ulug'bek vaqtini bobosi Amir Temur tashkil etgan buyuk kutubxona «Kitob gumbazi» da turli kitoblarni mutolaa qilish bilan o'tkazgan. Ulug'bek davrida Moavaraunnaxr o'z tarixida ikkinchi yuksalish davrini boshidan kechirdi. Ulug'bek Samarkand, Buxoro va boshqa shaharlarda o'nlab machit, madrasalar, hammomlar, karvonsaroylar, yo'llar, shifoxonalar qurirdi. Bular ichida eng mashhuri Ulug'bek rasadxonasidir. Bu rasadxonada o'nlab olimlar xizmat qilardir.

Ulug'bek tibbiyot ilmiga ham katta e'tibor bergan. Samarkandda bir kasalxona qurdirib, unda ishlash uchun Kirmon shaxridan mashhur tabib Burxoniddin Nafis ibn Avazni taklif qilgan. Ulug'bek o'z tabibining bilim va tajribasini qadrlardi. Ular o'rtasida do'stlik rishtalari bog'langan edi.

Ulug'bek bilimning ahamiyatini juda yaxshi tushungan olimlarni juda qadrlagan. Bilimning kelajagi porloq ekaniga ishongan. Bilim bilan shug'ullanishning naqadar zarurligini ta'kidlab, Buxoroda qurdirgan madrasasining peshtokiga qur'ondan olingan bunday so'zlarni yozdirgan ekan: **«Bilim olishga intilish xar bir musli va muslimaning burchidir»**

Ulug'bek Samarkandda ikki qavatli maxsus madrasa qurdirib, unda dorilfunun ochgan. Madrasada talabalar o'qiganlar va shu joyda istiqomat qilganlar. Dorilfununning bosh mudirasi qilib mashhur olim Qozizoda Rumiylar tayinlangan. Dorilfununda asosiy fanlar sifatida astronomiya, matematika, falsafa, badiiy adabiyot o'qitilgan. Tibbiyotdan xam dars berilgan.

Temuriylar sulolasining fan, madaniyat va iqtisodiy hayot rivoj topgan oxirgi bosqichi Sulton Husayn Boyqaro xukmdorlik qilgan vaqtga to'g'ri keldi. O'sha davrda barpo etilgan ko'plab maishiy binolar qatorida shifoxonalar, tibbiy maktablar, kutubxonalar ham bo'lgan. Bu ishlarning hammasiga Boyqaro saroyida bosh vazirlik lavozimini egallagan buyuk shoir va davlat arbobi – **Alisher Navoiy** rahbarlik va tashabbuskorlik ko'rsatgan.

Alisher Navoiy o'zi tabib bo'lmasa ham tibbiyotning rivojlanishida juda katta rol o'ynadi va insonparvarlik olim va davlat arbobi sifatida mamlakatda sog'liqni saqlash ishlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Navoiyning tashabbusi bilan mamlakatda 300dan ortiq turli madaniy-maishiy binolar, kasalxonalar, dorixonalar, tibbiy maktablar barpo etildi. Ayniqsa, o'sha paytda Xirotda juda ko'p qurilish ishlari amalga oshirilgan.

A.Navoiy o'sha zamondagi olimlar singari tibbiyotga oid kitoblarni mutolaa qilgan. O'sha vaqtdagi madrasalarda boshqa fanlar katorida tibbiy bilimlar xam dars berilardi. Navoiy o'qigan madrasaning bosh mudarrisi – Fayzullox Abullaysiy – olim va tabib bo'lgan. Bu olim Navoiyning ustoz edi.

Alisher Navoiyning tibbiyot, tabiblar va salomatlikni saqlash haqidagi fikr va mulohazalari uning mashhur «Maxbub ul-kulub» nomli kitobida bayon etilgan. Kitobda bu masalaga maxsus bob (15-bob) bag'ishlangan. Kitobning asosiy g'oyasi xalqparvarlik, xaqqoniylik, adolat va fuqaro haqida g'amho'rlik qilishdan iborat.

A.Navoiy o'z asarlarida salomatlikni saqlash va bunda tabiblarning roli haqida fikr yuritir ekan, avvalo tabibning o'zi qanday odam bo'lishi kerak, degan masalaga to'xtaladi.

Navoiyning fikricha, tabib birinchi galda o'z kasbini yaxshi egallagan mohir mutaxassisi bulishi lozim, u raxm-shafqatli bulishi kerak. Unda tibbiyotga nisbatan layoqatlilik, ya'ni iste'dod bo'lishi zarur. Tajribasiz, chalasavod, nodon tabibni Navoiy jallodga o'xshatadi.

Navoiy salomatlik va xastalik haqida so'z yuritar ekan, sharob masalasiga to'xtalib o'tadi. SHarobni u zaharga qiyos qiladi va ichkilikboz-likka berilish kishi tanasining zaiflashib, kasalga chalinishiga sabab bo'ladi deydi. Salomatlikni saqlash borasida Navoiy birinchi galda o'ringa to'g'ri va sifatli ovqatlanishini qo'yadi. Alisher Navoiy ba'zi mevalar va o'simliklarning masalan: makkaiy sano, kamfora, anor, behi, limon va ko'katlarning shifobaxsh xususiyatlarini bilgan. Navoiy o'tmishning buyuk tabiblari haqida o'z fikr va mulohazlarini bildirgan. U Ibn Sinoga juda yuksak baho bergan. Uni aql-idrok va tafakkur ramzi deb atagan.

A.Navoiy ilm ahllarini qadrlab, yuksaklarga ko'targan va ularga Nux payg'ambarning umrini tilagan. U Xuroson va Movaraunnaxrda tibbiyotning rivojlanishida juda katta rol o'ynagan. Uning xizmati shundaki, u yirik davlat arbobi va insonparvar olim sifatida mamlakatda tibbiy muassasalar barpo etish, tib ilmini rivojlantirish, tibbiy maktablar ochish, tib sohasida mutaxassislar tayyorlash ishiga bosh-qosh bo'lgan. Bu ishlarni amalga oshirishda o'z shahsiy mablag'larini ham sarf qilgan.

Xirot tibbiy kompleksi. 1480-1481 yillarda Xirotida Navoiyning ko'rsatmasi va ishtiroki bilan shahar chetidagi eng ko'rkam joyda Injil kanali bo'yida tibbiy kompels barpo etildi. Bu kompleksga «SHifoxiya» nomli kasalxona, «Safohiya» nmoli hammom va xovuz xamda «lhlosiya» nomli madrasa kirgan. «SHifoxiya» kasaloxonasida dorixona va kutubxona xam bo'lgan.

Ulug' xakim Ibn Sino kasalxonalar qurilishida o'lkaning tabiiy iqlim sharotini hisobga olish, bemorlarga mumkin qadar qulay sharoit yaratib berish ko'zda tutilishini lozim deb tavsiya qilgan edi. Navoiy tibbiy kompleksni qurishda quruvchilardan bu qoidaga qat'iy rioya qilishni talab etgan.

Navoiy Xirotida «Unsiya» nomli kichikrok madarasa qurdirib, o'zi o'sha joyda yashagan. SHu erda olimning shaxsiy kutubxonasi ham bo'lgan. Kutubxonada boshqa nodir kitoblar qatorida tibga oid asralar ham bo'lgan.

«SHifoxiya» kasalxonasi tibbiy maktab uchun o'quv-amaliyot bazasi rolini o'ynagan. Kasallarni davolash va tibbiy maktabda dars berish uchun Navoiy Xuroson va Movaraunnaxrning barcha shaxarlaridan eng tajribali tabiblarni taklif etgan. Navoiyning ko'rsatmasi bilan kasalxonaga kambag'al-nochor bemorlar qabul qilingan. Davolash bepul bo'lgan.

«lhlosiya» madrasasida o'sha vaqtda eng ko'zga ko'ringan olimlar mudarrislik qilganlar. Ulardan Amir Burxoniddin Atoullox Nayshapuriy, Qozi Ixtiyoriddin Hasan Turbatay, Amir Murtazo, Mavlono Fasxiddin Nizomiy kabi olimlar ayniqsa katta shuhrat qozondilar.

Xirotida SHahriston ichida yana bir kasaloxona bo'lgan. Unga «Dor ush-shifo» deb nom berganlar. Bu shifoxona ham Navoiyning qo'l ostida bo'lgan. Bu shifoxonada asosan saroy amaldorlari davolanganlar.

Alisher Navoiy barpo etgan «SHifoxiya» kasalxonasi va «lhlosiya» madrasasining shuhrati o'sha vaqtdayok butun SHarqqa yoyilgan edi. Bu erga boshqa mamlakatlardan ko'plab talabalar kelib, bilim olishgan va mutaxassis bo'lib o'z yurtlariga qaytishgan. Navoiy zamonasida tibbiy bilimlar va amaliy tibbiyot yuksak darajada rivoj topgan.

Temuriylar avlodining oxirgi namoyondalaridan biri buyuk o'zbek shoiri va davlat arbobi – Zaxiriddin Muxammad Bobur edi. U XVI asr boshida mamlakatga SHayboniyxon

qo'shinlari bostirib kelganidan so'ng Hindistonga o'tib ketib, u erda o'z davlatini barpo etdi. Tarixda bu davlat ulug' mug'ullar sulolasi nomi bilan ma'lum. Bobur boshqa Temuriylar kabi ilm-fan va ma'rifatga katta axamiyat berdi. Olim, shoir va san'at ahllarini doimo qo'llab-quvvatlar, ularga saroydan joy berib, ijodiy faoliyatlari uchun yaxshi sharoit yaratib bergan edi.

Bobur saroydagi fozillar qatorida yirik tibbiyot olimlari ham bor edi. SHulardan biri o'sha zamonda ko'zga ko'ringan tabiblardan YUsuf ibn Muhammad ibn YUsuf al-Xaraviydir.

YUsuf tabibning eng mashhur asari «Kasalliklarni davolash»dir. Bu asarda organizmdagi barcha a'zolarining kasalliklari, ularni aniqlash va davolash tadbirlari bayon etilgan. Asarda bosh miya kasalliklari bayon etiladi. YUsuf tabib SHark tabobatida birinchilardan bo'lib, zaxm kasalligini aniqlagan. U kasallikda tanosil a'zolarining zararlanishini ko'rsatib bergan va bu kasallikni davolash simob preparatlarini ishlatgan.

Kasallikni davolashda YUsuf tabib asossan simpomatik principga asoslangan, ya'ni davo tadbirlari kasallik sababini emas, balki uning belgisini yo'qotishga qaratgan.

O'zi asli O'rta Osiyolik bo'lib, Hindistonga borib, o'sha erda yashab, ijod qilgan mashhur tabiblardan yana biri – SHaxobaddin tabib ibn Abdulkarim edi. SHaxobaddin tabib hayotda juda kamtarin, insonlarga nisbatan mexribon va jonkuyar odam bulgan. SHaxobiddin tabibning «Kasalliklar davosi» asari amaliy tibbiyotning hamma tomonlari yoritilgan. Bu asar o'sha vaqtda keng tarqalgan bo'lib, undan tabiblar o'z faoliyatlarida ko'p foydalanganlar.

Xozirgi O'zbekiston xududida temuriylar davrida tibbiyot ancha yuksak darajaga ko'tardi. SHaharlarda kasalxonalar, tibbiy maktablar, kutubxonalar qurildi. O'nlab mashhur tabiblar etishib chiqdi. Ular bemorlarni davolash bilan bir qatorda tibbiy maktablarda talabalarni o'qitganlar. Tibbiyot boshqa fanlar singari Ulugbek va Husayn Boyqaro zamonasida yuksak darajda rivojlandi.

Ma'ruza ta'minlanishi:

- Mavzu bo'yicha jadvallar.

Tekshirish uchun savollar:

- Amir Temur farmoni bilan qurilgan kasalxonaning nomi va u qaerda qurilgan?
- Amir Temurning shaxsiy tabibi kim bo'lgan?
- Tabib Burxoniddin ibn Avaz haqida nimalar bilasiz?
- A.Navoiyni tibbiyotni rivojlanishiga qo'shgan hissasini gapirib bering.
- Xirotda tibbiy kompleksi tarkibiga qaysi muassasalar kiradi?

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar:

1, 2, 3, 4, 5, 6, 8, 9, 10.

Ma'ruza №7

O'zbek xonliklari davridagi tibbiyot – 2 soat

Mavzu maqsadi:

Talabalarni o'zbek xonliklari davridagi tibbiyot, o'sha davrda faoliyat ko'rsatgan tabiblar, ularning asarlari va faoliyati bilan tanishtirish.

Kutilayotgan natijalar:

Talabalar ma'ruzani eshitgandan so'ng bilishlari kerak:

- SHayboniyxonlar davridagi tibbiyotni.
- O'sha davrda yashab ijod qilgan tabiblarning tabiblik faoliyatini.
- Ashtarxoniylar davridagi tibbiyotni.
- So'nggi o'zbek xonliklari davrida yashab ijod qilgan tabiblar faoliyatini.

Ma'ruza rejalari:

- SHayboniylar davrida faoliyat ko'rsatgan Sulton Ali Xurosoniy, Ubaydullo al-Kaxxol, shox Ali Sulaymon va boshqa tabiblar asarlari va tabiblik faoliyati.
- Ashtarxoniylar davrida «Davo maskani» kasalxonasi barpo etilishi.
- Subxonqulixon va Abuldg'ozixonlar davridagi tibbiyot.
- Mahmud YAypaniy, Ja'far Xazaraspiy va boshqa tabiblarning asarlari va faoliyati.

O'qituvchining 7-ma'ruza bo'yicha izoxi:

SHayboniylar va Ashtarxoniylar davridagi tibbiyot. Temuriylar sulolasi XV asr oxiriga kelib tushkunlikka uchradi. Siyosiy xokimiyat zafilashdi, iqtisodiy hayot izdan chiqdi. 1506 yilda oxirgi temuriylardan bo'lgan Husayn Boykaro vafot etdi. Zaxiriddin Bobur Vatanni tark etib, Hindistonga o'tib ketdi. Movaraunnaxrda yagona davlat tuzish qo'lidan keladigan kuch qolmadi. XVI asr boshida Movaraunnaxrni SHayboniyxon qo'shinlari zabt etdilar.

SHayboniyxon odamlari o'zlarini biz o'zbeklarmiz deb atardilar. Ular bu erdagi maxalliy o'zbeklar bilan aralashib ketib, yangi davlatni – o'zbek xonligini barpo etdilar.

SHayboniyxon Samarkandni o'z davltining poytaxti deb e'lon qildi. Buxoroni ukasi Maxmud Sultonga berdi. Toshkent va uning atrofidagi erlarni qarindoshlariga bo'lib berdi. So'ng u Xuroson va Xorazmni bosib oldi. Xurosonga o'z o'g'li Temur Sultonni xokim qilib qo'ydi. Bu sulolaning asoschisi SHayboniyxon ancha bilimdon odam edi. U adabiyot va san'atga qiziqar, bu soha ahllarini qo'llab-quvvatlardi. Temuriylarga taklid qilib, mamlakatda iqtisodiy hayot, fan va madaniyatni rivojlantirishga intildi. Ammo temuriylar shon-shuhratiga eta olmadi.

SHayboniylar xukmronlik qilgan davrda mamlakatda tibbiyot anchagina rivojlandi. Deyarli xar bir shaharda kasalxona, nogironlar uyi, dorixona, tibbiy maktablar bo'lardi. Masalan, XVI asr urtasida Toshkentning ko'rkam chekkasida «CHorbog'» degan joyda maxsus kasalxona qurilganligi ma'lum. Bu erda bemorlar va yaradorlar davolanganlar. Kasalxonalarda tajribali tabiblar ishlardilar. Ular talabalarga tibb ilmidan ham dars berardilar. CHuqur bilimli bu tabiblar tibga oid asarlar xam yozganlar.

XVI asrning oxiiriga kelib o'zaro urushlar natijasida shayboniylar davlati zafilashib koldi. Bu vaqtda janubda Eron shohlari mamlakatga taxdid sola boshladilar. SHimolda esa rus podshoxidan madad olgan qozoq xonlari xujum boshladilar. Oxirgi shayboniylardar biri – Abudlmo'min mamlakatni birlashtirishga urinib ko'rdi. Ammo ayrim viloyatlarning beklari uni qo'llab-quvvatlamadilar. Aksincha, ular dushmanlar bilan kelishish yo'lini tutdilar. Abdulmo'min o'ldirildi. Bu bilan shayboniylar sulolasi xam tugadi.

1599 yilda Movaraunnaxrning xoni qilib Koki Muhammad saylandi. U boshqa o'zbek qabilasidan – ashtarxoniylardan edi. Bular ham mamlakatda parchalanib ketish jarayonini to'xtata olmadilar.

Ashtarxoniylar xukmronlik qilgan davrda Movaraunnaxrda iqtisodiy va madaniy hayot sohasida unchalik siljish ko`rinmadi. Bundan tibbiyot istisno edi. Ayrim shaxarlarda kasalxonalar barpo etildi. Ularda bemorlarni davolash bilan birga talabalar xam o`qitilardi.

Bu vaqtdagi ko`zga qringan tabiblardan biri – **Subxonqulixon** (Sayyid Muhammad Subxonqulixon ibn Sayidnodir Muhammadxon)dir. Subxonqulixon Buxoro amiri edi. U har xil fanlar bilan qiziqqan, ayniqsa tibbiyot bilan ko`proq shug`ullangan. Subxonqulixon saroyda tabiblarni yig`ib, tabobat borasida ilmiy anjumanlar o`tkazib turardi. Subxonqulixonning amaliy tibbiyot bilan shug`ullangani ma`lum emas, ammo tibga oid ikkita asari borligi ma`lum. Bular «Subxon tibbiyoti» va «Subxonning hayotbaxsh tibbiyoti»dir. Bu kitoblar o`zbek (turkiy) tilda yozilgan.

«Subxon tibbiyoti»da muallif oson, tushunarli qilib har xil kasalliklarni aniqlash va davolash haqida so`z yuritadi. Kitob unchalik katta emas, ammo unda tibbiyotning asosiy masalalari qisqa, lekin aniq bayon etilgan.

«Subxonning hayotbaxsh tibbiyoti» («Ix`yo ut-tibbi Subxoniy!») esa asosan dorilarga bag`ishlangan. Kitob 8 qismdan iborat. Har bir qismda dorilarning sifati, tayyorlanishi va ishlatilishiga oid ayrim masalalar yoritilgan. Subxonqulixonning kitoblari o`zbek tilida yozilgan birinchi tibbiy asarlar sifatida tibbiyot tarixida muxim o`rin tutadi.

Subxonqulixon mamlakat boshlig`i sifatida fuqaro sog`ligini saqlash ishiga ma`lum darajada e`tibor bergan. Ma`lumki, O`rta Osiyo sharoitida yozning issiq kunlarida aholi o`rtasida ich ketish kasalligi ko`payadi. SHuning oldini olish uchun Subxonqulixon nonovoylar non yuziga kunjut urug`i sepib yopsinlar, degan farmon chiqaradi. Kunjut avvalo o`zi xushbo`y xidli, yoqimli, ikkinchidan esa u ich ketishini to`xtatadi. Farmon bilan boshlangana bu tadbir xozir odat tusiga kirgan.

Subxonqulixonning farmoni bilan 1682 yilda Buxoroda kasalxona barpo etildi. «SHifo beruvchi manzil» deb atalardi. Kasalxona madrasa ko`rinishda qurilgan. U 18 xujra (palata)dan iborat bo`lgan. Kasalxona kompleksiga tibbiy maktab va kututbxona ham kirgan. Kasalxona va tibbiy maktabga o`sha zamonning ko`zga ko`ringan olimlaridan Mavloni Mirqosim Hakim rahbarlik qilgan. Buxoro madrasasida tabiblardan yana Amin Rais, Oxund Mullo Abdug`ofur Hakim, Xoja YOqublar xizmat qilar edilar.

Madrasa kutubxonasi kitobga juda boy bo`lgan. Kasalxona mablag`i davlat xisobidan ajratilgan. U vakf erlar va boshqa manbalardan ta`minlangan.

O`zbekiston tibbiyoti tarixida yana bir davlat arbobi tib ilmi bilan shug`ullangan. Bu Xorazm xoni Abulg`ozixon.

**Abulg`ozixon** (Abulg`ozi ibn Abulmuxamadxon Xorazmiy 1605-1664) tarix, riyoziyot, adabiyot va tibbiyot sohasida chuqur bilim va tajribaga ega bo`lgan. U o`zi xukmronlik qilgan davrda mamlakatda obodonchilik ishlariga katta axamiyat bergan. Madrasalarda turli bilimlarni o`qitishni ancha yaxshilagan. O`zi ham tarix, adabiyotga oid bir qancha asar yozgan. Abulg`ozixon tibga oid kitobini «Insonga foydali kitob» o`zbek tilida yozga so`ng fors tilida tarjima qilingan.

Bu asar 4 qismdan iborat bo`lgan. Birinchi qismda oddiy dorilarning hossalari, ularni tayyorlash va ishlatish usullari bayon etilgan. Ikkinchi qism – murakkab dorilarga bag`ishlangan. Bu qismda murakkab dorilarni tayyorlash, saqlash, ishlatish usullari yoritilgan. Uchinchi qismda tibbiyotda ko`p ishlatiladigan umumiy dorilar haqida so`z yuritiladi. Kitobning turtinchi qismi – tibbiyotning umumiy nazariy va amaliy masalalariga bag`ishlangan.

Abulg'ozixonning kitobi tabiblar o'rtasida keng tarqalgan va undan ko'p tabiblar foydalanganlar.

O'sha davrda Marvda Sayyid Muhammad Xasrat ismli shoir va tabib yashagan. U asli Mashxadlik edi. SHu erda bilim oldi, tarix, adabiyot va tibbiyotni o'rgandi. Xasrat ko'prok tibbiyotga moyil edi. U ko'p mashhur tabiblardan saboq olgan, ular qo'lida xizmat qilib, tajriba orttirgan. Sayid Muhammad Hasrat tibga oid bir necha asar yozgan. Ulardan eng mashhuri «Sihatliknazmi»dir.

«Sihatlik nazmi» Mavr xokimi Bayramxonga bag'ishlangan. Hasratning ikkinchi kitobi «Tuhfai Husayniy» Bayramxonning o'g'li Husaynga bag'ishlangan. Bu kitobda oddiy dorilar bayon etilgan. Ularning issiqlik va sovuqlik xususiyatlari ko'rsatilgan. Sayyid Muhammad Hasrat tibbiyot haqidagi o'z fikr va mulohazalarida boshqa tabiblar singari mizojlar nazariyasiga asoslanadi.

XVIII asrga kelib, Movaraunnaxr va Xurosonda bir necha mustaqil xonliklar paydo bo'ldi. SHulardan uchasi – Qo'qon va Xorazm xonliklari va Buxoro amirligi hozirgi O'zbekiston xududida edi. Bular o'rtasida tez-tez urushlar bo'lib turardi. Buning natijasida mamlakatda tushkunlik, xarobalik vujudga kelardi.

1753 yilda Buxoro xonligi o'zbeklarning mang'it qabilasidan bo'lgan Muhammad Raxim qo'lga o'tdi. Buxoro asta-sekin fan va madaniyat markazidan diniy markazga aylandi. Ruxoniylar davlat hayotining hamma sohalarini o'z qo'llariga ola boshladilar. O'qish-o'qitish va sud ishlari tomomila ular qo'uliga o'tdi. Butun ma'naviy hayot shariat qoidalariga bo'ysundirildi. Madrasalardan dunyoviy fanlar olib tashlandi, faqat diniy o'qitish usuli saqlab qolindi, tibbiy ilmlar ham o'qitilmay qo'yildi, kasalxonalar yo'q bo'lib ketdi. Xon va amirlar fuqaroni esdan chiqardilar. Mamlakatda iqtisodiy va madaniy hayotning hamma sohalarida siljish bo'lmaydi. Aksincha, mamlakatning ilgari shon-shuhrati yo'qoldi.

So'nggi o'zbek xonliklari davridagi tibbiyot. XVIII asr o'rtalariga kelib, hozirgi O'zbekiston xududi va Turkmaniston, Qirgiziston hamda Tojikiston ko'pgina qismi uch o'zbek xonligi – Qo'qon, Xorazm xonliklari hamda Buxoro amirligi o'rtasida taqsimlab olingan edi. Bu xonliklar xududida yashovchi aholining ko'pchiligi o'zbeklar tashkil etardilar. Ayrim shaharlar va qishloqlarda tojiklar yashardilar. Xiva va Buxoro xonliklarining garbiy va janubiy qismida kirgizlar va qozoqlar, Orol dengizi atrofida esa qoraqalpoqlar yashardilar. Bundan tashqari bu uchala xonlik xududida eronliklar, arablar, hindlar, yaxudiylar va boshqa xalqlar xam istiqomat qilardilar.

XVII-XIX asrlarda O'zbekiston xududida quyidagi ko'zga ko'ringan tabiblar yashaganlar. Junaydullo Hoziq, Ja'farxo'ja Xazaraspiy, Mahmud YAypaniy, Tursunxo'ja Xakim, Abdullo Xo'ja tabib, Boldaqli tabib, Xakimcha tabib, Abulvahhob Ibodiy, Axmadxo'ja tabib, Qodir tabib, Xoji tabib, Atoullo tabib, Mannop tabib, Nurullo tabib va boshqalar.

Junaydullo Hoziq (Junaydullo ibn Islomshayx Hoziq) o'tgan asrning ko'zga ko'ringan tabiblaridan bo'lgan, o'zi asli Xirotnik edi. Tarix, adabiyot va tibbiyot sohasida chuqur bilimga ega bulgan. XIX asrning boshlarida Buxoroga kelib, tabiblik ishi bilan shug'ullangan. U chuqur bilim va etuk tajribasi tufayli kasalliklarni to'g'ri aniqlab, muvaffa-qiyatli davolagan va xalq o'rtasida katta xurmatga sazovor bo'lgan.

Junaydullo Hoziq tabiblikdan tashqari badiiy adabiyot bilan xam shug'ullangan, she'rlar yozgan. Tarixiy mavzularda ham asarlar yaratgan. U hatto Buxoro amiri Nasrulloxon sha'niga ham tanqidiy fikr bildirgan edi. Buning natijasida xonning gazabiga duchor bo'ladi va Buxoroda yashay olmay, Qo'qonga ko'chadi. Bu erda bir oz vaqt yashagandan so'ng Xivaga

ketadi. Ammo bu erda ham xon bilan kelisha olmaydi va Qo`qonga qaytadi. 1842 yilda Qo`qonni Buxoro amiri Nasrullo zabt etadi. Qo`qon xoni Muhammad Alini qatl ettiradi. Buxoro xonining askarlari shaharni talon-taroj qiladilar, aholini talaydilar. Barcha xunarmandlar, naqqoshlar Buxoroga olib ketiladi. Junaydullo Hoziqni xam olib ketadilar, lekin u SHahrisabzga qochadi. Ammo Nasrullo nayrang ishlatib Hoziqni o`ldiradi.

Junaydullo Hoziqdan ba`zi asarlar qolgan. SHulardan biri tibbiyotga taalluqlidir. Bu kitobnni Hoziq «Haqiqatni aniqlash va uni tekshirib ko`rish» deb atagan. Hoziq o`lkamiz tibbiyoti tarixida muxim o`rin egallagan.

**Ja'far Xo`ja Xazaraspiy** (Ja'far Xo`ja ibn Nasriddin Xo`ja al-Husayn Karvaki Xazaraspiy) oxirgi xorazmlik olim va tabiblardan biri edi. Ancha chuqur bilim va tajribaga ega bo`lgan Xazaraspiyning tibbiy fikrlari SHarq tibbiyotiga xos bo`lgan mizoj tushunchasiga asoslangan edi. Olimning fikricha, xar qanday kasallikning asosiy sababi organizmning suyuq moddalarning o`zgarishidan kelib chiqadi. Bu o`zgarish miqdorning mohiyati shundan iboratki, noto`g`ri ovqatlanish natijasida tabiat omillarining salbiy ta`sir etishi va shunga o`xshash zararli omillar ta`sirida o`zgaradi. Buning oqibatida muvozanat buzilib, kasallik paydo buladi. Xazaraspiy kasallikning oqibatini oldindan ko`ra bilish, ya`ni pronostikaga alohida ahamiyat bergan. Tabib prognozni aniqlab olgandan so`ng shunga qarab ish ko`rishi kerak.

Xazaraspiyning tibga oid asosiy kitobi «Tib bilimlari to`plami» deb atalgan. Mazmun jihatdan bu asar Ibn Sino «Tib qonunlari» ning uchinchi kitobiga o`xshaydi. Kitobda xar xil dorilar, ularni tayyorlash va ishlatish usullari ham ko`rsatilgan. Ja'far Xazaraspiyning «Tib bilimlari» kitobi SHarq tibbiyoti tarixida muxim rol o`ynaydi.

Mahmud Hakim YAypaniy - Qo`qondan o`tgan asrning ikkinchi yarmi, XX asrning boshida yashagan yirik o`zbek tabiblaridan biri edi. U har xil fanlar sohasida chuqur bilimli olim va tajribali tabib bo`lgan.

Mahmud Hakim 1851 yil Qo`qonga yaqin YAypan qishlog`ida tavallud topgan. YAypaniyning o`tmish avlodlari taniqli kishilar bo`lganlar. Uning bobosi Mulla Badal Qo`qon xoni Amir Umarxon saroyida xizmat qilgan. Otasi Badaliy ancha badavlat odam bo`lgan, savdo ishlari bilan shug`ullangan, katta erlari ham bo`lgan.

Mahmud YAypaniy yoshligidanoq juda zehnli bola bo`lgan va adabiyotga qiziqqan, ko`p o`qigan. U Qo`qondagi «Mirzo Qo`qondiy» madrasasida tahsil olgan. Madrasada u vaqtda dunyoviy fanlar deyarli o`qitilmagan. Talabalar asosan qur`on va shariat konunlarini o`rganish bilan shug`ullanganlar. Faqat ayrim mudarrislar talabalarga ba`zi bir dunyoviy fanlar haqida boshlangich ma`lumot berardilar.

Mahmud YAypaniy hayotda juda kamtarin kishi bo`lgan, kambag`al, beva-bechoralarga rahm-shafqat bilan qaragan, ularni bepul davolagan. SHuning uchun xalq o`rtasida juda katta hurmatga sazovar bo`lgan. Uning shuhrati butun Qo`qon xonligiga tarqaldi. SHunda Qo`qon xoni Xudoyorxon YAypaniyni saroy tabibi vazifasiga taklif etadi. Amo YAypaniy bu taklifni qabul qilmaydi.

YAypaniy fanning har bir sohalariga oid ko`pgina asarlar yozgan. Ammo bizga ularning xammasi ma`lum emas. YAypaniyning ikki asarini bilamiz. Biri «Bilim o`lchovi», «Tabiblik qonuni». «Bilim o`lchovi» Farg`ona va Qo`qon xonligi tarixiga bag`ishlangan. «Tabiblik qonuni» tibbiyot olamiga bag`ishlangan. Kitob arab tilida yozilgan. YAypaniy o`z kitobida kasalliklarni aniqlash va ularni davolash masalalarini yoritgan. Bunda avvalo tashxis va davolash sohasidagi o`tgan olimlarning va o`z zamonasidagi tabiblarning fikrlari keltiradi.

So'ng muallif o'z fikr va tajribalarini bayon etadi. YAypaniy kasallik sabablari masalasida mizoj fikridan boshqacharoq fikr yuritgan.

Kasallik sababi haqida so'zlab, YAypaniy organizmdagi suyuqliklarga alohida ahamiyat beradi. U bu suyuqliklar tashqi va ichki salbiy omillarga ta'sirida o'zgaradi, deydi. Tashqi omillardan u yomon ovqat, iqlim va ob-havoning o'zgarishi, og'ir jismoniy mehnat hamda ruhiy kechinmalarini sanab o'tadi. Bulardan tashqari tashqi muhitda kasallik paydo qiluvchi jonivorlar ham bo'lishini ko'rsatadi. Kasallik sabablari masalasida YAypaniyni fikrlari hozirgi zamon tushunchasiga yaqin bulgan SHarq tibbiyoti tarixida YAypaniy muxim iz qoldirgan.

Mustamlaka davrida tibbiyot. XIX asrning 60 yillarida O'rta Osiyo xududining ko'p qismi rus podshoxining qo'shinlari tomonidan zabt etildi. Qo'qon xonligi tugatildi. Uning o'rniga chor xukumatining Turkiston general-gubernatorligi barpo etildi. Uning tarkibida xarbiy-tibbiy boshqarma tashkil qilindi.

Xiva xonligi bilan Buxoro amirligi chor xukumatining vassalariga aylantirildi. 1886 yilda Turkiston general-gubernatorligi «Rossiyaning Turkiston o'lkasi» deb e'lon qilindi.

O'rta Osiy Rusiya tomonidan bosib olingandan so'ng bu erda muxim siyosiy iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar yuz berdi. Siyosiy jihatdan o'zbek xonliklari o'z mustaqilliklarini yo'qotdilar, ular chor xukumatiga qaram bo'lib qoldilar.

Tibbiyotning rivojlanishida ba'zi ijobiy o'zgarishlar ham yuz berdi. O'lkada birinchi zamonaviy tibbiy muassasa barpo etildi. 1868 yil sentyabr oyida Toshkentda 30 urinli xarbiy lazaret ochildi. U 1870 yilda xarbiy gospitalga aylantirildi. 1870 yil Samarkandda 15 o'rinli kasalxona ochildi.

1870 yilda Toshkent viloyatidagi To'ytepa qishlog'ida aholining o'z mablag'i xisobiga kasalxona qurildi. Bunday kasalxonalar Samarkandda, Toshkentda, Xivada va Buxoroda ham bunyod etildi. Ammo bu kasalxonalar juda kichik va etarli darajaga jihozlanmaganligi uchun ularning aholiga beradigan yordami etarli emas edi. 1874 yilda Toshkentda birinchi zamonaviy dorixona ochildi. U shahar xokimiyati qaramog'ida edi. So'ng xususiy dorixonalar ham ochildi. 1913 yilga kelib soni 33 taga etdi. Bu kasalxona, ambulatoriya va dorixonalar etarli bo'lmasa ham ularning paydo bo'lishi tibbiyot olamida ijobiy hodisa edi.

Tibbiyot sohasida bu ijobiy o'zgarishlar Xiva xonligi va Buxoro amirligi xududida amalga oshirilmadi. Chunki bu xonliklar rasmiy jihatdan o'z xonliklarini saqlab qolgan edilar. Eski qonun va qoidalar o'zgarmay qolgandi. Hayot eskicha davom etardi. Turkiston o'lkasida yuz bergan iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar bu xonliklarga yoyilmadi. Xiva va Buxoroda ochilgan ikki kasalxona faqat aholining yuqori tabaqa vakillariga xizmat qilardi.

Turkistonning Rusiyaga qo'shib olinishi natijasida ilmiy tibbiyot sohasida yanabir ijobiy hodisa ro'y berdi. Rusiyadan kelgan tabiblar va olimlar bu erda uchraydigan kasalliklarni ilmiy jihatdan tekshira boshladilar va bu sohada muxim kashfiyotlar qildilar. Chor mustamlaka rejimi sharoitida bu kashfiyotlar amaliyotda qo'llanilmadi.

1915 yilga kelib Turkiston xududida hammasi bo'lib har biri 15-20 o'rinli 72 kasalxona, 23 ta qishloq vrachlik uchastkasi, 64 ta ambulatoriya, 7 ta tug'ruk muassasasi, 2 ta ruhiy kasalliklar shifoxonasi, 2 ta ko'z kasalliklari shifoxonasi va shahar kasalxonasi xuzurida 1 ta teri va tanosil kasalliklari bo'limi barpo etilgan edi. Maxalliy aholi bu zamonaviy tibbiy muassasalarda davolanish imkoniyatiga ega emasdi.

1918 yilda o'rta tibbiy bilim yurti, 1919 yilda esa oliy tibbiy o'quv yurti barpo etildi. Ammo ko'p utmay o'lkada har xil voqealar yuz berib tibbiyot sohasida katta qiyinchiliklar kelib

chiqdi. Masalan, inqilobdan so'ng o'lkada kup vrachlar, Rusiyaning markaziy shaharlariga ketib qoldilar. Kasalxonalar va ambulatoriyalar bo'shab qoldi. SHuning uchun davolanishga muxtoj bo'lganlarning hammasi kasalxonalarga joylasha olmas edilar.

Ikkinchi qiyinchilik shundan iborat bo'ldiki, davlat ixtiyoriga o'tkazilagn kasalxona, ambulatoriya va dorixonalarning sobiq egalari birlashib, o'lka xukumatining sog'liqni saqlash ishini yo'liga qaratilgan tadbirlarga qarshilik ko'rsata boshladilar. Dorixona egalari dorilarni er ostiga ko'mib, berkitib tashladilar. Buning natijasida kasallarni davolash uchun dori etishmay ularning ko'pi o'lib ketdilar. Ayniqsa yuqumli kasalliklar bilan og'riganlar ko'p nobud bo'ldilar.

Tibbiyotning o'z sohasidagi qiyinchiliklarga boshqa qiyinchiliklar ham qo'shildi. Masalan, 1918 yil kuzida o'lkada ocharchilik boshlandi. Bu uz navbatida yana sog'liqni saqlash ishini og'irlashtirdi. Ocharchilik natijasida yangi kasallik – alimentar distrofiya kasalligi kelib chiqdi. Boshqa kasalliklar ham ko'paydi.

Milliy tibbiy qadrlar etishtirish maqsadida 1920 yilda shu yili ta'sis etilgan Turkiston dorilfununi tarkibida tibbiy fakultet tashkil etildi. Tibbiyot soxasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish uchun maxsus oliy bilimgothlar ochildi. 1931 yilga kelib tibbiy fakultet mustaqil tibbiy oliygohga aylantirildi. Samarkandda ikkinchi tibbiy oliy o'quv yurti barpo etildi.

1932 yili Toshkentda vrachlarnin malakasini oshirish oliy bilimgohi ochildi. Har xil kasalliklar, ayniqsa o'lka kasalliklari deb ataluvchi kasalliklar ilmiy jihatdan o'rganildi. Ularga qarshi davo va profilaktika choralari ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Buning natijasida ba'zi kasalliklar tugatildi.

Qishloq aholisiga tibbiy yordam ko'rsatishni yaxshilash choralari ko'rildi. Kishlok tibbiy muassasalariga ko'proq tibbiy qadrlar yuborildi. Tibbiy kadrlar tayyorlash ancha ko'paytirildi. Mamlakatni sanitariya jihatdan muhofaza qilish va yuqumli kasalliklar tarqalib ketmasligi uchun zarur choralar amalga oshirildi.

Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekistonda tibbiy xodimlar xam frontga jo'nadilar. Oliy va o'rta tibbiy o'quv yurtlarida o'qitish muddati qisqartirilib, frontga oz fursatda ko'p tibbiy qadrlar etkazib berildi.

Urush yillarida tibbiyot sohasidagi ba'zi ilmiy tadqiqot ishlari kamaydi. Ba'zan ilmiy tadqiqot oliy bilimgohlari yopildi. Ulardagi ilmiy xodimlar frontga yuborildi. Urushdan keyin mamlakat tiklanish davriga kirdi. Sog'liqni saqlash sohasida ham tiklanish va rivojlanish ishlari olib borildi. Urush vaqtida yopib qo'yilgan oliy bilimgothlar qayta tiklandi, ulardagi ilmiy-tadqiqot ishlari yanada kengroq ko'lamda olib borila boshladi. YAngi oliy bilimgothlar tashkil qilindi. Masalan, 1965 yilda Andijonda uchinchi tibbiy oliy bilimgohi ochildi. 1972 yilda Toshkentda O'rta Osiyo pediatriya tibbiy oliy bilimgohi barpo etildi. 1990 yilda Buxoro va Xorazmda tibbiy oliy bilimgohlari tashkil etildi.

1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi respublikamizni mustaqil deb e'lon qildi. O'zbekiston 123 yil davom etgan Rusiya mustamlakasi asoratidan butun iqtisodiy, moddiy va ma'naviy hayotida juda katta ijobiy o'zgarishlar paydo qildi. Bu voqea respublika-miz tibbiyotiga ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Respublikamiz tibbiyoti o'tmishdagi buyuk an'analarimiz merosiga asoslanib yangi rivojlanish yo'liga kirdi. Tibbiyotimiz tarixida yangi davr boshlandi.

Ma'ruzaning ta'minlanishi:

- Mavzu bo'yicha jadvallar.

Tekshirish uchun savollar:

- SHayboniylar Movaraunnaxrda tibbiyotning rivojlanishidagi xizmatlarini aytib bering.
- SHayboniylar davrida yashagan tabiblardan kimlarni bilasiz va ularning faoliyati.
- Subxonqulixonni Buxoro tibbiyotini rivojlanishidagi xizmat-larini gapirib bering.
- Xorazmda tibbiyotning rivojlanishida Abulg'ozixonni tutgan o'rni to'g'risida nimalar

bilasiz?

- Ja'far Xo'ja Xazaraspiyning faoliyatini gapirib bering.
- Mahmud YAypaniy to'g'risida nimalar bilasiz?

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar:

1, 2, 4, 5, 6.

Ma'ruza №8**Kapitalizm va mustamlaka davridagi tibbiyotning
rivojlanishi – 2 soat****Mavzuning maqsadi:**

Talabalarni kapitalizm va mustamlaka davridagi olamshumul ixtiro va davolash usullarini yaratish tarixi va ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish.

Kutilayotgan natijalar:

Talabalar ma'ruzani eshitgandan so'ng bilishlari kerak:

- Nazariy-tibbiy bilimlarning rivojlanishi turixini.
- Diagnostika sohasidagi kashfiyotlarini.

Mavzu rejalari:

- Kapitalizm davrida tibbiyotning rivojlanishi.
- Nazariy-tibbiy bilimlarning rivojlanishi.
- Diagnostika sohasidagi kashfiyotlar (perkussiya, auskultatsiya, elektrokardiografiya, rentgenoskopiya, aspekta va antiseptika usuli, og'riqsizlantirish usuli, qon quyish usuli)

O'qituvchining 8-ma'ruza bo'yicha izoxi:

Nazariy-tibbiy bilimlarning rivojlanishi tarixi. XVIII-XIX asrlarda Ovrupada nazariy va amaliy tibbiyotning hamma sohalarida juda tez rivojlandi va katta yutuqlarga erishdi. Nazariy tibbiyot fanlaridan birinchi o'rinda anatomiya va fiziologiya turadi. Haqiqiy odam anatomiya-siga A.Vezalus asos solgan edi. Vezalusdan boshlab anatomiya fani asta-sekin rivojlanib takomillashib bordi.

XVIII-XIX asrga kelib mikroskopik anatomiya fani – gistologiya shakllandi Bu fanning asoschisi chex olimi YAn Pukine (1787-1869) hisoblanadi. U 1837 yilda birinchi bo'lib hayvon va odam organlari xujayralaridan iborat ekanligini isbotladi. Makroskopik anatomiya xam rivojlanishda davom etdi. Uning yangi sohalar kelib chiqdi. Masalan, shulardan biri – topografik anatomiya. Bu fanning asoschilaridan bir rus olimi, mashhur jarroh N.I.Pirogov edi (1810-1881). Topografik anatomiya ichki a'zolarining joylashishi va ularning bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlarini o'rganuvchi fandir.

Bundan tashqari taqqoslash anatomiyasi va yosh anatomiya masalalari ham o'rganildi. Nixoyat, patologik anatomiya fani shakllandi. Bu fanning asoschisi Italiya olimi

Jovanni Battista Morgani hisoblanadi (1687-1771). Morgani o'zi anatom edi. U normal anatomiyaning o'rganish bilan birga kasallik xolatlarida organlarda qanday o'zgarishlar yuz berarkan, degan masalaga qiziqib qolib, kasalxonada o'lgan bemorlarning jasadini yorib, uning a'zolarini tekshira boshladi. Buning natijasida u kasallikda a'zolarida bo'ladigan uzgarishlarni aniqladi. SHunday qilib, yangi fan – patologik anatomiya vujudga keldi. Rudolf Virxov (1821-1902) esa bu ishni mikroskopik usulda amalga oshirdi va pellyulyar patologiya nazariyasini ishlab chiqdi.

Patologik anatomiya juda muhim praktik ahamiyatga ega buldi. U tabiblarga qanday kasalliklarda, qanday a'zolarida, qanday o'zgarishlar ro'y berishini ko'rsatib berdi. Bu esa klinik tibbiyotning rivojlanishiga yordam berdi.

XVIII-XIX asrlarda tibbiyotning yana bir muhim nazariy sohasi – fiziologiya juda tez rivojlandi va katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu sohada yangicha tekshirish usullari – hayvonlarda tajribalar o'tkazish usuli, ya'ni eksperiment usuli amalga oshirildi. Eksperimental fiziologiyani asoschilaridan Fransua Majandit, Ioxann Myuller, Dyubua-Reymon, Klod Berner, Xerman Xelmbolgolc kabi fiziologlar bu fanning rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

Fransua Majandit (1783-1855) eksperimental usul haqida gapirib, «bizning fiziologiya sohasidagi bilimning manbai faqat tajribadir», degan edi. U eksperimental usulni ancha takomillashtirdi. Bu olim orqa miyani eksperimental usulda tekshirib, uning oldingi va orqadagi ildizlarining funkciyasini aniqlab berdi.

Majandit boshqa a'zolarining funkciyasini ham har tomonlama tekshirdi va ko'p fiziologik processlarni ochib berdi. Lekin Majandit fiziologik processlarning mohiyatini masalasida noto'g'ri fikrda edi. U bu processlar oddiy fizika qonunlari asosida amalga oshadi, deb tushunardi.

Ioxan Myuller (1801-1858) o'sha davrning eng yirik eksperimenta-torlaridan biri edi. Bu olim eksperimental fiziologiya sohasida yuksak natijalarga erishdi va bu sohada u ko'pgina shogirdlar tayyorladi. Ioxan Myuller o'zining tajribalari asosida ko'pgina fiziologik jarayonlarni ochib berdi, yirik kashfiyotlar qildi.

U eksperimental yo'li bilan ko'rish, eshitish, so'zlash a'zolari ishini tekshirdi. Xayvonlarda asab tomirlarining rivojlanishini aniqladi. Siydik tanosil yo'llarining funkciyasi sohasida yuksak natijalarga erishdi va bu sohada u ko'pgina shogirdlar tayyorladi. Ioxan Myuller o'zining tajribalari asosida ko'pgina fiziologik jarayonlarni ochib berdi, yirik kashfiyotlar qildi. Siydik, tanosil yo'llarining funkciyasini o'rgandi, tomirlardagi qon tarkibini tekshirdi, uning vazifasini aniqladi, ichki sekciya bezlarini tekshirdi. Myuller bu jarayonlarni boshqarib turuvchi hayotiy kuch (vita) bor, deb faraz qilgan edi. Bu yo'nalish fiziologiyada «vitalizm» degan nom oldi.

Emil Dyubua Reymon (1818-1896) fiziologiyada yangi sohani – elektrofiziologiya usulini ishlab chiqdi. U xayvonlar organizmida elektrofiziologik jarayonlar ro'y berishini ko'rsatib berdi. O'zi esa mexanik materializm pozitsiyasida turardi. U xayotiy jarayonlarning mohiyatini hech qachon tushunolmaymiz, degan hulosaga kelgan edi. Agnosticizmning (ignoramus et ignorabimus) «bilmaymiz va hech qachon bilib etmaymiz» degan formulasini Dyubua Reymon aytgan edi.

Klod Berner (1813-1878) fiziologiyani juda ko'p sohalarini ishlab chiqqan. Ayniksa, ovqat hazm qiluvchi a'zolar, ichki sekreciya bezlari va qon aylanishi jarayonlarini chuqur tekshirgan. Olim fiziologiyada eksperimental usulni joriy etishda etakchi o'rinlardan birini egallagan edi. Klod Berner eksperimental patologiya fanining asoschilaridan biridir.

Fiziologik jarayonlarning mohiyatini to'g'ri tushunishga mashhur nemis olimi fiziolog, psixiatr va matematik Xerman Xelmgolc (1821-1894) harakat qilgan edi. U 1847 yilda «Kuchning saqlanishi haqida» deb atalgan kitob chiqarib, unda organizmda energiya saqlanishini matematik jihatdan asoslab berdi. Bu bilan Xelmgolc «hayotiy kuch» haqidagi tushunchani inkor etdi. Olim sezish organlari va mushaklar ishi fiziologiyasni aniq ishlab chiqdi.

XIX asrning erishgan muhim yutuqlaridan biri – mikroorganizmlar haqidagi fanning shakllanishi va rivojlanishi edi. Bu fanga birinchi qadam XVII asrda qo'yilgan edi. Uni Xollandiyalik olim **Anton Levenhuk** boshlab bergan edi. Levenhuk o'zi ixtiro etgan oddiy mikroskop orqali atrof-tabiatni tekshirib, unda son-sanoqsiz kichik tirik mavjudotlar mavjudligini aniqladi. Bu masalaga boshqa olimlar ham qiziqib qolib, so'ngi asrlar davomida juda ko'p tekshirishlar o'tkazdilar. Bu davrda mikroskop ham takomillashtirildi. Juda mayda mavjudotlarni ham ko'rish imkoniyati tug'ildi. Masalan, mikrobiologiya, virusologiya, bakteriologiya, parazitologiya fanlari shakllandi.

1839 yilda nemis olimi **Iohann Lukas SHyonleyn** (1793-1864) ipsimon zamburug'larni topdi. Bu bilan parazitologiya faniga asos soldi. Mashhur francuz olimi **Lui Paster** (1822-1913) o'z tekshirishlari natijasida achish jarayoni mikroblar tufayli ro'y berishini aniqladi. 1880 yilda quturish kasalligiga qarshi vaktsinasiya usulini ishlab chiqdi va 1885 yilda bu usulni amalda qo'lladi.

1876 yil mashhur nemis olimi **Robert Kox** (1843-1910) kuydirgi kasalligini paydo qiluvchi mikroblarni topdi. 1882 yilda esa sil kasalligining mikrobini aniqladi. 1883 yilda esa insonlarga eng xavfli bo'lgan vabo mikrobini topdi. Robert Kox jarohatlangan va operatsiya vaqtida kesilgan joyda paydo bo'luvchi yiringlanishning sababini ko'rsatib berdi. Nemis olimi **Paul Erlix** (1854-1915) mikroblar har xil ximiyaviy moddalarga nisbatan o'zlarida turg'unlik xususiyati paydo qilishlari mumkinligini isbotladi.

Mikrobiologiya va virusologiya fanining rivojlanishi natijasida deyarli hamma yuqumli kasalliklarning sababchilari aniqlandi. Bu amaliyot tibbiyot sohasidagi katta yutuk edi. Bu kashfiyotlar yuqumli kasalliklarga qarshi profilaktika va davolash tadbirlarini ishlab chiqish imkoniyatini berdi.

Perkussiya (a'zolarni maxsus usulda tuqillatib qqrish) usulini mashhur venalik olim **Leopold Auenbrugger** (1722-1809) ishlab chiqdi. O'z vaqtida bu usuldan Hippokrat foydalangan edi. Auenbrugger 1761 yilda bu haqda maxsus asar yozib, unda perkussiyani qanday amalga oshirish kerakligi, undan qanday foydalanish mumkinligini ko'rsatib berdi. Ammo dastlab bu usul uncha keng tarqalmadi. Chunki uni har bir tabib ham amalga oshira olmas edi. Bu usul ma'lum tajriba talab etar edi. Auenbrugger aqldan ozgan deb e'lon qildilar. Ammo uning kashf etgan usuli to'g'ri ekanligi oxirida isbot etildi. Francuz klinitsiti – Jan-Nikol Korvizar (1755-1821) Auenbruggerning perkussiya usuli haqidagi asari bilan tanishib, 20 yil davomida bu usulni tekshirdi va takomillashtirdi. 1880 yilda Auenbruggerning asarini francuz tiliga tarjima qilib bosib chiqardi. 1818 yilda bu haqda o'zi asar yozib e'lon qildi.

Auskultatsiya (a'zolarni eshitib ko'rish) usulini francuz klinitsiti Rene Laennek (1781-1826) ishlab chiqdi. Bu usuldan ham o'z vaqtida antik davr xakimlari foydalangan edilar. Laennek Hippokratning bu usul haqidagi asarini o'qib, uni tekshirib ko'rdi va bu usul ham yurak va o'pka kasalliklarini tekshirishda juda qulay ekanligini aniqladi. Dastlab Laennek Hippokrat kabi ko'krakka to'g'ridan-to'g'ri qulog'ini qo'yib eshitgan edi. So'ng u stetoskop bilan eshitish usulini qo'lladi. Bu usulda eshitish to'g'ridan-to'g'ri qulog'ini qo'yib eshitishga

qaraganda juda anik tovush bergan edi. Quloqni qo'yib eshitganda tana bilan quloqning bir-biriga ishqalanishi natijasida qo'ushimcha gichirlagan tovushlar ham paydo bo'lardi.

Elektrokardiografiya usuli, ya'ni yurak ishi vaqtida unda paydo bo'ladigan elektrik hodisalarni yozib olish usuli Xollandiyalik olim **Villem Eynxoven** (1860-1927) tomonidan ishlab chiqilgan. Bu usul yordamida yurakning turli fiziologik va patologik xolatlari aniqlandi va shunga qarab davo usullari qo'llanildi. Yurak kasalliklarini aniqlashda bu usul juda qulaydir.

Rentgenoskopiya usuliga nemis fizigi Vilxel Rentgen asos solgan. U 1895 yilda tasodifan ko'zga ko'rinmas nurni kashf etdi. Bu nur uning kashfiyotchisi nomi bilan Rentgen nurlari deb ataladi. Nur tekshirish ko'rilganda u tanani yumshoq qismlaridan o'tib keta olishligi qattiq qismlarda masalan, suyakda esa u ushlanib qolishligi aniqlandi. Shunga asosan a'zolari rentgen nurlari yordamida tekshirish usuli ishlab chiqildi. Ayniqsa, yurak va o'pkaning xolatini tekshirishda bu usul juda qulay keldi.

XX asrda klinik tibbiyotning hamma sohalari rivojlandi Jarrohlik sohasida esa asrlar davomida echilmay kelgan muammolar xal etildi. Bular: 1) operatsiyani og'riqsizlantirish; 2) operatsiya qilingan joyni yiringlashdan saqlash; 3) qon quyish usuli.

Aseptika va antiseptika usuli. Bu usulni XIX asrdan Angliya jarrohi Jozef Lister (1827-1912) qaytadan tiklab yanada rivojlantirdi. U Pasterning achish va yiringlash jarayoniga mikroblar sabab bulishi haqidagi fikriga asoslanib, operatsiya qilingan joyning yiringlashishiga ham mikroblar sabab bo'lishini aniqladi va mikroblarga qarshi dori ishlatdi. Operatsiya qilingan joyga karbol kislotasining eritmasi shimdirilgan doka parchasini qo'yib bog'laydigan bo'ldi. SHundan so'ng operatsiya qilingan joy ko'pincha yiringlamay tekis bitadigan bo'ldi. SHunday qilib, antiseptika usuli kelib chiqdi va u ko'pchilik jarrohlar tomonidan qo'llanila boshladi.

SHundan so'ng antiseptikadan aseptika usuliga o'tdilar, ya'ni operatsiya kilinadigan joyga mikroblar tushirmaslik chorasi ishlab chiqildi. Jarroh qo'llarini yaxshilab yuvib va mikroblarni o'ldiradigan moddalar bilan tozalab so'ng operatsiyaga kirishadigan bo'ldi. Jarroh nafas olganda, yo'talganda yoki so'zlaganda uning chiqargan nafasi orqali operatsiya qilinayotgan joyga mikroblar tushmasligi uchun u maska kiyib oladigan bo'ldi. SHunday qilib aseptika usuli odatga kirdi.

Og'riqsizlantirish usuli qadim zamonlarda ham qo'llanilgan. Ammo bu usul keng miqyosda tarqalmadi. XX asrda u xal etildi. 1846 yilda Amerikalik tish tabibi Morton birinchi bo'lib efir yordamida og'riqsizlantirish usulini ko'llab, og'ritmay kasal tishni sug'urib oldi. 1847 yilda esa bu usulni jarroh Jon Uorren qo'lladi. U efir narkoz yordamida og'riqsizlantirib, bemor me'dasini operatsiya qildi. SHunday so'ng og'riqsizlantirish usuli jarrohlikda keng qo'llana boshladi.

Qon quyish usuli, ya'ni bemor biror sabab bilan yo'qotgan qonni tiklash muammosi qadimdan ma'lum edi. Ammo bu ikki sababdan amalga oshmay keldi. Bu masala hatto xal qilingandan keyin ham qon quyish usuli rivojlanmay qoldi. 1901 yilda Avstraliyalik olim Karl Landshteyner (1868-1943) odam qonini biologik xususiyati jihatdan 3 ta guruxga bo'ldi. 1907 yilda esa Polsha olim YAn YAnskiy (1873-1921) qon 4 guruxga bo'linishini aniqladi. Bemor qoni gruppasiga mos qon quyilsa, organizm uni reaksiyasiz qabul qilishi ma'lum bo'ldi. SHunday so'ng qon quyish usuli keng qo'llanila boshladi. Ko'p asrlardan beri jarrohlarning qo'lini bog'lab kelgan muammolar xal qilindi va jarrohlik juda tez rivojlana boshladi.

XIX va XX asrlarda tibbiyot sohasida yana bir muhim hodisa ro'y berdi. Bu jamoat tibbiyotining kelib chiqishi va rivojlanishidir.

XIX asr boshida Angliyada bir guruh tabiblar (Monrad Xorner, Jon Saymon, Grixau, Byuknene, Smit, Xater va boshqalar) ayrim guruxlarda uchraydigan kasalliklarni tekshira boshladilar. Bunda ular fabrikalar, zavodlar, konlarda ish sharoiti, ishchilarining yashash joylari, ularning iqtisodiy ahvoli bilan xam qiziqdilar. Bu tabiblar ko'p narsani aniqladilar. Bu bilan ular jamoat tibbiyotiga asos soldilar. Bu tabiblarning xuslosasiga asosan Angliya xukumati 1848 yilda maxsus («ko'k kitob») qaror qabul qilindi.

Germaniyada bu ishni Alfred Grotyan, Grinxau, Fisher, Uinslov, Popper va boshqalar olib bordilar. Ammo bu tabiblar ko'proq laboratoriya tekshirish usullari bilan cheklandilar. Faqat Alfred Grotyan masalaga sociologik jixatdan yondoshdi. U ijtimoiy gigienani alohida fan darajasiga ko'tardi va 1920 yilda birinchi bo'lib ijtimomiy gigiena kafedrasini tashkil etdi.

SHunday qilib, XIX asrning boshiga kelib tibbiyot sohasida yangi ommaviy fan – ijtimoiy gigiena fani shakllandi.

Ma'ruzaning ta'minlanishi:

- Ma'ruza bo'yicha jadvallar.
- Mavzu bo'yicha sxemalar.

Tekshirish uchun savollar:

- Anatomiya va gistologiya fanlarining rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
- Fiziologiya fanini rivojlanishida katta hissa qo'shgan olimlar to'g'risida gapirib bering.
- Mikrobiologiya fanining rivojlanishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
- Perkussiya va auskultaciya usullarini kimlar ishlab chiqqan?
- Elektrokardiografiya usulini ishlab chiqqan olim kim?
- Rentgenoskopiyani kashf etgan olim kim?
- Aseptika va antiseptika usullari to'g'risida nimalar bilasiz?
- Og'riqsizlantirish usuli qachon va kim tomonidan qo'llanilgan?
- Qon quyish usuli to'g'risida gapirib bering.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar:

1, 2, 4, 5.

Ma'ruza №9

Mustamlaka davridagi tibbiyot. O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasidagi yangi qonun va qarorlarning ishlab chiqilishi hamda ularni tibbiyotga tadbiq etilishi – 2 soat

Mavzuning maqsadi:

Talabalarni O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi ishlab chiqarilgan sog'liqni saqlash to'g'risidagi qonun va qarorlar bilan tanishtirish.

Kutilayotgan natijalar:

Talabalar ma'ruza eshitgandan so'ng bilishlari kerak:

- O'zbekiston Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan chiqarilgan qonun va qarorlarni.
- SHu qonun va qarorlarni amaliyotga tadbiq etilishi hamda ahamiyatini.

Mavzu rejalari:

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan qonun va qarorlarni va ularni ahamiyatini.

- Davlat sanitariya nazorati to'g'risida, fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida, dori-darmon va sog'liqni saqlashni isloh qilish to'g'risidagi qonun va qarorlarni hayotga tadbiiq etilishi.

O'qituvchining 9-ma'ruza bo'yicha izoxi:**Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida**

1-modda. Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risidagi qonun va xujjatlari. Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risidagi qonun xujjatlari ushbu Qonun hamda boshqa konun xujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida fuqarolarning sog'ligini saqlash sohasidagi xuquqiy munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun xujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Basharti xalqaro shartnomada fuqarolarning sog'ligini saqlash to'g'risidagi qonun xujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, u xolda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

2-modda. Fuqarolar sog'linin saqlash to'g'risidagi qonun xuj-jatlarining asosiy vazifalari.

Fuqarolarning sog'liqni saqlashga doir xuquqlari davlat tomonidan kafolatlanishi ta'minlanishi; fuqarolar sog'lom turmush tarzini shakllantirish; davlat organlari korxonalar, muassasalar, tashkilotlar jamoat birlashmalarining fuqarolari, sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyatini xuquqiy jihatdan tartibga solish.

3-modda. Fuqarolar sog'ligini saqlashning asosiy prinsiplari.

Fuqarolar sog'ligini saqlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: sog'liqni saqlash sohasida inson xuquqlariga rioya qilinishi; aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan baxramand bo'la olishi; profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi chora-tadbirlarning ustunligi; sog'ligini yo'kotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi; tibbiyot fanining amaliyot bilan birligi.

II. Fuqarolarning sog'ligini huquqiy jihatdan muxofaza qilish.

13-modda. Fuqarolarning sog'liqni saqlash huquqi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sog'liqni saqlash borasida dahlsiz huquqqa egadirlar. Davlat yoshi, jinsi, millati, tili, dinga munosabati ijtimoiy kelib chikishi e'tiqodi shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar fuqarolarning sog'ligini saqlashni ta'minlaydi. Davlat fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan qat'iy nazar ularning kamsitishlaridan himoya qilinishi kafolatlaydi. Ushbu qoidalarni buzishda aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

15-modda. Fuqarolarning sog'likka ta'sir etuvchi omillar haqida axborot olish huquqi.

Fuqarolar sog'likka ta'sir etuvchi omillar haqida shu jumladan yashash xududining sanitariya-epidemiologik jihatdan xotirjamligi to'g'risida, ovqatlanishining oqilona normalari

xususida tovarlar, ishlar, xizmatlar ularning xavfzligi, sanitariya normalari va qoidalariga muvofiqligi to'g'risida o'z vaqtida va aniq axborot olish huquqiga ega.

III. Fuqarolarga tibbiy ijtimoiy yordam ko'rsatish.

29-modda. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami.

Davlat sog'likni saqlash tizimi, ijtimoiy ta'minot, jamoat birlamchilarining muassasalari ko'rsatadigan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tibbiy xizmat ko'rsatishning asosiy, qulay va bepul turi bo'lib quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Eng ko'p tarqalgan kasalliklar, shikastlanish, zaxarlanish va shoshilinch yordam talab etiladigan boshqa xolatlarni davolashni; sanitariya-gigienaga doir va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarini, turar joylarda fuqarolarga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish bilan bog'liq barcha chora-tadbirlar ko'rishni; xususiy va boshqa xil sog'liqni saqlash tizimlarining muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning xajmi va tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi belgilaydi.

IV. Tibbiy ekspertiza.

37-modda. Tibbiy-mehnat ekspertizasi.

Tibbiy-mehnat ekspertizasi fuqarolar nogironlikning sababi va guruhni ularning mehnat layoqatini yo'qotganlik darajasini ular sog'ligini tiklashning turlari hajmi va muddatning hamda ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarini belgilaydi tegishli xulosalar beradi. Ushbu hulosalar korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriyati uchun majburiydir. Tibbiy mehnat ekspertizasini o'tkazish muassasaning hulosasi ustidan fuqaroning o'zi yoki uning konuniy vakili sudga shikoyat qilishi mumkin.

38-modda. Xarbiy tibbiy ekspertiza.

Harbiy-tibbiy ekspertiza harbiy xizmatga kontrakt bo'yicha kiradigan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning Ichki Ishlar va Milliy Xavfsizlik Xizmati organlarining zaxirasida turgan fuqarolarining hamda xarbiy xizmatchilarning salomatligi jihatdan harbiy xizmatlar yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini kasallik yaradorlik shikastlaganlik harbiy xizmat (xarbiy yig'inlarni o'tish) bilan bog'liqligini aniqlaydi, harbiy xizmatchilarning tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish va sog'ligini tiklashning turlari xajmi va muddatini belgilaydi.

V. Tibbiyot va farmaceutika xodimlari.

41-modda. Tibbiyot farmaceutika faoliyati bilan shug'ullanish huquqi.

O'zbekiston Respublikasida tibbiyot va farmaceutika bilan shug'ullanish huquqiga oliy yoki o'rta maxsus tibbiyoti o'quv yurtini tamomlaganligi to'g'risida diplom olgan shaxslar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan belgilanadigan muayyan va va tibbiyot farmaceutika faoliyati turlari bilan shug'ullanish huquqiga ega diplom va licenziya olgan shaxs ega bo'ladi.

O'z kasbi bo'yicha 3 yildan ko'p ishlamagan tibbiyot va farmaceutika xodimlarining tegishli faoliyat bilan shug'ullanishiga tegishli o'quv yurtlaridan qayta tayyorgarlikdan o'tganlaridan keyingi yoki O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining attestatsiya komissiyalari o'tkazadigan attestatsiya asosida yo'l qo'yiladi.

Oliy va o'rta maxsus tibbiy o'quv talabalarining fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatishda ta'lim dasturlariga muvofiq qatnashishiga tibbiyot nazorati ostida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan yo'l qo'yiladi.

G'ayri qonuniy ravishda tibbiyot va farmaceutika faoliyati bilan shug'ulanuvchi shahslar qonunga muvofiq javobgar bo'ldilar.

VI. YAkunlovchi qoidalar.

44-modda. O'zbekiston Respublikasi shifokorining qasamyodi.

SHifokor diplomini olayotgan shaxslar quyidagi mazmunda qabul qiladi: SHifokor degan yuksak unvonni olib tibbiyot faoliyatiga kirishar ekanman, o'zimning bor bilim va mahoratimni bemorni davolashga hamda inson sog'ligini saqlashga bag'ishlashga yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar har bir bemorga kuch, g'ayratim va vaqtimni ayamay tibbiy yordam ko'rsatishga kishilarga hamisha mehr-muruvvat va shifo topishlariga ishonch hadya etishga Buqrot, Abu Al Ibn Sino singari ulug' tabiblarning shonli an'alarini davot ettirishga tantanali qasamyod qilaman.

SHifokorlar qasamyodni buzganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikka tortadilar.

45-modda. SHifokor siri.

Fuqaroning tibbiy yordam so'rab murojaat qilganligi uning sog'ligining holati kasalligiga qo'yilgan tashxis xususidagi xamda uni tekshirish va davolash davomida olingan boshqa ma'lumotlar shifokor ta'sirini tashkil etadi. SHifokor siri xisoblangan ma'lumotlarni fuqaro yoki uning qonuniy vakillaga ko'ra yo'l qo'yiladi, ahvoli og'irligi sababli o'z xoxishi irodasi bildirsa olmaydigan fuqaroni tekshirish va davolash maqsadida:

- tergov yoki sud tekshiruvchi o'tkazilishi munosabati bilan surishtiruv va tergov organlarining prokuratura va sudning so'rovi bo'yicha;

- o'n besh yoshga to'lmagan voyaga etmagan shaxsga yordam ko'rsatilayotgan uning ota-onasi yoki qonuniy vakillarini xabardor qilish uchun;

- fuqaroning sog'ligiga g'ayri qonuniy xatti-harakatlar yoki baxtsiz tasodif natijasida zarar etkazilgan deb gumon qilishga asoslar mavjud bo'lganida belgilangan tartibda berilgan shaxslar shifokor sirini oshkor qilganlik uchun konun xujjatlariga muvofiq tibbiyot va farmaceutika xodimlari bilan babbaravar javobgar bo'ladilar.

Ma'ruzaning ta'minlanishi:

- Qonundan ko'chirma.

- Mavzuga oid jadvallar.

Tekshirish uchun savollar:

- Aholi sog'ligini saqlash to'g'risidagi qonun qachon ishlab chiqilgan?

- 18-modda - Oila sog'ligini saqlash to'g'risida gapirib bering.

- Pensiya yoshidagi fuqarolarning huquqlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

- SHifokor siri qaysi moddada ko'rsatilgan?

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar:

